

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

SOLIYEVA DILFUZA ABIDOVNA

**KOORDINATSION QOBILİYATLARNI “DAS” SPORT O‘YINI
YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH VA BAHOLASH METODIKASI (Maktab
o‘quvchilari va voleybolchilar misolida)**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical
sciences**

Soliyeva Dilfuza Abidovna

Koordinatsion qobiliyatlarni “DAS” sport o‘yini” yordamida rivojlantirish va baholash metodikasi (Maktab o‘quvchilari va voleybolchilar misolida)..... 3

Солиева Дилфуза Абидовна

Методика развития координационных способностей и их оценка с использованием спортивной игры «DAS» (На примере школьников и волейболистов)..... 31

Soliyeva Dilfuza Abidovna

Methodology for the development of coordination abilities and their assessment using the sports game "DAS" (Using the example of schoolchildren and volleyball players)..... 59

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 63

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

SOLIYEVA DILFUZA ABIDOVNA

**KOORDINATSION QOBILİYATLARNI “DAS” SPORT O‘YINI
YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH VA BAHOLASH METODIKASI (Maktab
o‘quvchilari va voleybolchilar misolida)**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2022.2.PhD/Ped3735 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifaning “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|----------------------------|--|
| Ilmiy rahbar: | Yarashev Komiljan Dexkanovich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor |
| Rasmiy opponentlar: | Raximov Vladimir Shavkatovich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor Boltayev Zayniddin Boltayevich pedagogika fanlari nomzodi, professor. |
| Yetakchi tashkilot: | Jizzax davlat pedagogika universiteti |

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “ ”soat dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (+99897)689-10-92, faks: (+99897) 689-10-92, veb-sayt: www.jtsiti.uz. e-mail: uzsport.science@gmail.com. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Madaniyat saroyi, 2-qavat, Kichik majlislar zali.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ - raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy. Tel: (+99897) 689-10-92, faks: (+99897) 689-10-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “ ” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “ ” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

F.A.Kerimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

X.X.Qurbonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi,
p.f.b.f.d. (PhD)

O.J.Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, p.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo bo'yicha musobaqa faoliyati keskin o'zgaruvchan yo'nalishlar va favqulotli vazifyalarda kechadigan jamoali sport turlarida ijro etiladigan barcha harakatlar sifati va samaradorligi o'ziga xos koordinatsion qobiliyatlar (vaqt-oraliq va kuchlanish chegarasini farqlash, yangi harakatni tezda o'zlashtirish, harakat reaksiyasi va aniqligi, muvozanat saqlash va h.k)ga bog'liq ekanligi azaldan ma'lumdir. Mazkur koordinatsion qobiliyatlarni maqsadli shakllantirishda esa tanlangan sport turiga moslashtirilgan yoki turdosh harakatli o'yinlardan foydalanish afzalligi muvofiq manbalarda ochib berilgan. Lekin bunday o'yinlar orqali ushbu qobiliyatlarni bir yo'la, ham shakllantirish, ham real natijalar asosida ob'ektiv baholash imkoniyati o'ta chegaralangandir. Shunday bo'lsada, bugungi kungacha sport amaliyotida, ayniqsa musobaqa faoliyati favqulotli vaziyatlarda kechadigan sport turlarida ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan koordinatsion qobiliyatlarni, ham shakllantirish, ham baholash xususiyatiga ega harakatli o'yinlarni yaratish masalalari ijobiy izlanishlar yoki tadqiqotlar ostiga olinmagani ushbu yonalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Jahon sport tajribasida har bir sport turiga xos koordinatsion qobiliyatlarning nazariy asoslari, psixofiziologik mexanizmlari, ularning o'zaro bog'liqligi yetakchi olimlar tomonidan ochib berilgan. Xorijiy va mahalliy mutaxassis-tadqiqotchilar muallifligida chop etilgan ilmiy-metodik manbalarda (maqola, dissertatsiya, monografiya, o'quv adabiyotlar) jismoniy tarbiya va sport amaliyotiga xos koordinatsion qobiliyatlarni shakllantirish tartib qoidalari, metodlari, vositalari va prinsiplari ishlab chiqilgan. Shu bilan bir qatorda jamoali va vaziyatli sport turlariga xos koordinatsion qobiliyatlarni bir vaqtini o'zida ham shakllantiruvchi, ham baholashga mo'ljallangan, turli o'lchov birliklarida (soniya, metr, marta, ball va h.k.) baholashga mo'ljallangan innovatsion mazmunli harakatli o'yinlar ishlab chiqilmaganligi aniqlangan.

Mamlakatimizda ham mazkur yo'nalish doirasida keng qamrovli izlanishlar, serqirrali tadqiqotlar olib borilmoqda. Jismoniy tarbiya va sportchilar tayyorlash tizimi, shu jumladan ko'p yillik tayyorgarlik siklining barcha bosqichlarida o'tkaziladigan mashg'ulotlar va musobaqalarni ilmiy asosda tashkil qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda¹. Ma'lumki, sport faoliyatida real jismoniy va psixofunksional imkoniyatlarga asoslangan barcha harakatlar texnikasi va taktikasi, tezligi, aniqligi va foydali natijalari eng avvalo koordinatsion qobiliyatlar bilan belgilanadi. Shuning uchun ham so'nggi yillarda barcha sport turlari qatorida harakat faoliyati favqulotli vaziyatlarida kechadigan jamoali sport turlarida ham koordinatsion qobiliyatlarni shakllantirish metodlari, vositalari va o'ziga xos texnologik yondashuvlarning yangi avlodlarini yaratishga urg'u berilmoqda. Bu borada ushbu qobiliyatlarni samarali shakllantirish vositasi bo'lmish turli harakatli o'yinlardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Lekin o'z o'rnida shuni ham ta'kidlash joizki, bunday harakatli o'yinlarda muayyan o'lchov birligida real natijalarni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 3-noyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-414-sonli qarori.

qayd etilishi nihoyatda cheklanganligi mazkur tadqiqot yo`nalishini ilmiy asoslangan holda olib borish vazifasini hal etish masalalarini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-sonli "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5280-sonli "Sport-ta'lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi Qarorlari, 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-sonli "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni hal etishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga bog'liq holda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz miqiyosida koordinatsion qobiliyatlarni jadal sur'atlar bilan maqsadli shakllantirishda maxsus o'yin mashqlari, ayniqsa, sport va vaziyatli harakatli o'yinlardan foydalanishning afzalligi bir qator mutaxassis olimlar S.S.Tajiboyev, F.A.Pulatov, A.Sh.Mo'minov² tomonidan isbotlangan. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlari Y.D.Jeleznyak, A.R.Galeyev, N.A.Bernshteyn, I.Yu.Gorskaya, V.N.Platonov, V.I.Lyax, A.M.Maksimenko, V.S.Kuznesov, L.P.Matveyev, Yu.V. Verxoshanskiy, L.D.Nazarenko³ tomonidan jismoniy tarbiya va sport amaliyotida namoyish etiladigan deyarli barcha jismoniy sifatlar, shu jumladan, texnik-taktik usullarni o'z tarkibida mujassam qilgan "chaqqonlik" tushunchasining mantiqiy mohiyati, mazmuni va uning turli komponentlarini aks ettiruvchi koordinatsion qobiliyatlar iyerarxik tartibda integrallashgan ko'p pog'onali nerv markazlari tomonidan mushaklar orqali harakatlarning boshqarilishi va bu harakatlarning o'ziga xos psixofunksional reaksiyalar yordamida amalga oshirilishi fundamental tadqiqotlar asosida ochib berilgan. Mazkur olimlar manbalarida e'tirof etilishicha, koordinatsion qobiliyatlar

² Тажибоев С.С. Ёш боксчилар машгулотларида халқ ҳаракатли ўйинларидан фойдаланиш самарадорлиги // Ж. ФАН-СПОРТГА. 3.2012. - Б. 8-12. Pulatov F.A. Sport o'yinlari bilan shug'ullanuvchi 7-10 yoshli bolalarda o'naqay va chapaqay harakatlarni simmetrik tartibda shakllantirish ustuvorligi. avtoref.: O'zJTSU, 2020. — 53 b. Muminov A.Sh. Malakali gandbolchilarda maxsus mashqlarni qo'llash asosida texnik tayyorgarligini takomillashtirish uslubiyati. Avtoref.: O'zDJTSU, 2023. — 65 b.

³ Бернштейн Н.А. Физиология движений и активность / Под ред. О.Г.Газенко. - М.: Наука, 1990.-С. 37-45. Горская, И.Ю.Теоретические и методологические основы совершенствования базовых координационных способностей школьников с различным состоянием здоровья : автореф.: 13.00.04 / Сибирская гос. академия физич. культуры. - Омск, 2001. - 46 с. Назаренко Л.Д. Стимулируемое развитие двигательных и координационных качеств / Л.Д. Назаренко // Теория и практика физ. культуры. - М., 2001 - С. 99-101. Железняк Ю.Д. Петров П.К. Основы научно-методической деятельности в физической культуре и спорте. // Учеб. пособие для студ. ВУЗов. М.: Академия, 2002.- С. 64-73. 104. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практическое приложение. Киев, Олимпийская литература, 2004. - С. 791-800 Лях В.И. Координационные способности: диагностика и развитие. - М.: ТВТ Дивизион, 2006. - 290 с. Максимова А.М. Теория и методика физической культуры. - М.: ФиС, 2009. - С. 9-17. Кузнецова Ж.В. Развитие ловкости у детей старшего дошкольного возраста и использованием игровых упражнений на физкультурных занятиях // Ж: «Мир науки, культуры, образования»: № 5(54) 2015.- С. 22. Галеев А.Р. Развитие двигательных координаций в танцевальном спорте: Монография. — Нижневартовск: Изд-во Нижневарт. гос. ун-та, 2016. — 108 с. Матвеев Л. П. Теория и методика физической культуры (введение в теорию физической культуры; общая теория и методика физического воспитания): учебник для высших учебных заведений физкультурного профиля. —4-е изд. - М. : Спорт, 2021. - 520 с. Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подготовки спортсменов. — 2-е изд. - М.: Советский спорт, 2021. — 332 с.

quyidagi tarkibiy komponentlardan iborat bo'lishi mumkin ekan: turli harakatlarni takrorlash aniqligi, harakatni ijro etishda vaqt-oraliq, mushaklarning kuchlanish chegarasini farqlash va baholash, harakatlanayotgan ob'yektga reaksiya ko'rsatish aniqligi, murakkab koordinatsiyali harakat tezligi, optimalligi, sifati va soni, harakatni maqsad sari energetik jihatdan tejimli ijro etish, harakat turg'unligi, tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillar ta'siriga barqarorlik. Ana shu mualliflar tomonidan koordinatsion qobiliyatlarni shakllantirish vositalari, ularni baholash testlari va baholash mezonlarini yaratishga asos solingan. N.V.Moskvina, V.A.Moskvin, A.S.Martinova, D.Y.Shevshenko, S.A.Filin, V.S.Poperekov, O.Y.Malaxova, S.D.Boyko va b., M.A.Sergazinova, T.A.Oblesovalar ⁴ tomonidan aniqlanganki, qobiliyatlar har bir sport turining o'ziga xos xususiyatlariga qarab turlicha mazmun, shakl (nusxa) va yo'nalishda namoyish etilishi mumkin ekan Shu bilan bir qatorda, jismoniy tarbiya darslari, ayniqsa, musobaqa faoliyati favqulodda vaziyatlarda kechadigan jamoali sport turlariga xos koordinatsion qobiliyatlarni bir vaqtning o'zida ham shakllantirish, ham baholash imkoniyatini yaratuvchi universal xususiyatga ega harakatli o'yinlar amaliyotga joriy etilmagani kuzatiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti Ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining I. "Innovatsion tafakkurli ma'muriy kadrlarni tayyorlash va tanlashni tashkil etish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jamoali sport turlariga xos koordinatsion qobiliyatlarni bir vaqtning o'zida shakllantirish va baholash imkoniyatini yaratuvchi "DAS" sport o'yinini ishlab chiqish va uning samaradorligini ilmiy asoslashdan bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jamoali sport turlariga xos koordinatsion qobiliyatlarni baholashga mo'ljallangan an'anaviy testlarni modifikatsiyalashtirish va mazkur qobiliyatlarni bir vaqtning o'zida ham shakllantirish, ham baholashga moslashtirilgan "DAS" sport o'yinini yaratish;

malakali voleybolchi talabalar bilan o'tkaziladigan an'anaviy mashg'ulotlar davomida yetakchi koordinatsion qobiliyatlarning shakllanish sur'atini modifikatsiyalashtirilgan testlar va "DAS" sport o'yini natijalari asosida baholash afzalligini aniqlash;

muvozanat saqlash turg'unligi "sust" va "yaxshi" rivojlangan malakali voleybolchi talabalarda yetakchi koordinatsion qobiliyatlarning asimmetrik farqi va ularning shakllanish sur'atini kompleks o'rganish;

⁴Moskvin V.A., Moskvina N.V. Межполушарные асимметрии и индивидуальные различия человека. Монография: Изд-во Смысл, 2011.- С 106. Мартынова А.С. Развитие координационных способностей у бадминтонистов 8-9 лет на этапе начальной подготовке. Научно-теоретический журнал "Ученые записки", № 3 (73)- 2011, С. 133-137. Шевченко Д.Ю. Методика совершенствования координационных способностей старших школьников с различной моторной асимметрией. Омск №1 - 2012. - С.144-151. Филин С.А. Двигательно-координационная тренировка самбистов на этапе начальной подготовки. Автореф.: ГБОУ ВПО г. Москва «Московский городской педагогический университет», Москва, 2013. – 126 с. Попереков В.С. Развитие координационных способностей баскетболистов 10-11 лет с учетом типологических свойств их нервной системы: автореф.: 13.00.04 / Попереков Владислав Сергеевич; [Место защиты: Нац. гос. ун-т физ. культуры, спорта и здоровья им. П.Ф. Лесгафта, С.-Петербург.]. - Санкт-Петербург, 2015. - 24 с. Малахова О.Е. Формирование координационных способностей юных спортсменов 9-10 лет в джиу-джитсу. Автореф.: ФГБУ ФНЦ ВНИИФК, Москва – 2019. - 109 с. Бойко В.Н., Ботяев В.Л., Ботяев С.В. Проблемы двигательной координации и пути ее решения в учебном процессе студентов-бакалавров педагогического вуза: // Теория и практика физ. культуры. – М., 2020. – № 1. – С. 41–43. Сергазинова М.А. Обучение сложнокоординационным видам ведения мяча в подготовке юных баскетболисток. Автореф.: ФГБОУ ВО имени П.Ф. Лесгафта, Санкт-Петербург»- 2021. – 185 с. Облецова Т.А. Интегральная методика развития координационных способностей юных баскетболистов на тренировочном этапе. Автореф.: ФГОУ ВПО Вгафкс, Великие Луки – 2022. — С. 215-220.

malakali voleybolchi talabalar misolida yetakchi koordinatsion qobiliyatlarni o'naqay-chapaqay yo'nalishlarda qo'llaniladigan o'yin mashqlari va ishlab chiqilgan "DAS" sport o'yini yordamida shakllantirish va farqini o'rganish.

Tadqiqotning obykti sifatida O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida ta'lim olayotgan malakali voleybolchi-talabalarning mashg'ulot jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini muvozonat saqlash turg'unligi, o'zgaruvchan yo'nalishlar bo'ylab yugurish tezligi va harakat aniqligi kabi koordinatsion qobiliyatlarni shakllanish sur'atini o'rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning uslublari. Ilmiy-uslubiy manbalar tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematik-statistik usul, ishlab chiqilgan modifikatsiyalashtirilgan testlar hamda ixtiro qilingan va patentlangan "DAS" sport o'yini"dan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jamoali sport turlariga xos koordinatsion qobiliyatlarni (muvozonat saqlash turg'unligi, o'zgaruvchan yo'nalishlar bo'ylab yugurish tezligi, harakat aniqligi va h.k.) rivojlantirishda amaldagi an'anaviy testlarning modifikatsiyalashtirilgan variantlari va ilk bor yaratilgan yangi sport o'yini vositalarini mashg'ulotlarga kiritish hisobiga harakatlarni bir vaqtni o'zida samarali takomillashtirish hamda obyektiv baholash imkoniyati kengaytirilgan;

malakali voleybolchi-talabalar bilan o'tkazilgan an'anaviy mashg'ulotlarda yetakchi koordinatsion qobiliyatlarni shakllanish sur'atini ixtisoslashtirilgan testlar va yangi sport o'yini dasturi yordamida integral tartibda aniqlash metodikasi takomillashtirilgan;

muvozonat saqlash turg'unligi "sust" va "yaxshi" rivojlangan malakali voleybolchi-talabalarda yangi sport o'yinida qo'llaniladigan dastalarni o'ng va chap qo'lda ushlab asimmetriyasi aniqlangan hamda ushbu qobiliyatni simmetrizatsiyalash imkoniyatlarini ishonchli sur'atlarda oshirish hisobiga harakatlar texnikasi takomillashtirilgan;

malakali voleybolchi-talabalarning asimmetrik farq bilan ijro etiladigan yetakchi koordinatsion qobiliyatlarni o'ng va chap tomonlarni qo'llaniladigan yangi sport o'yini mashqlari yordamida simmetrik tartibda samarali shakllantirish texnologiyasi va harakatlarni baholash mezonlari mashg'ulotlarga kiritilishi hisobiga musobaqalar natijadorligi hamda samaradorligi oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

sport o'yinlari bilan shug'ullanuvchi sportchilarga xos yetakchi koordinatsion qobiliyatlarni (turli statik holatlarda va aylanma dinamik harakatlar davomida muvozonat saqlash, o'ng va chap tomonlar bo'ylab aylanma yo'nalishda yugurish tezligi va harakatlar aniqligi) baholashga mo'ljallangan an'anaviy testlar ob'ektivligini oshirish maqsadida ular qisman modifikatsiyalashtirilgan va amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi, 22.10.2020, № 002550, № 002552);

harakat koordinatsiyasi, tezligi va aniqligini bir vaqtni o'zida ham shakllantiruvchi, ham vaqt o'lchov birligida (soniya) va ballar asosida baholash imkoniyatini yaratuvchi "o'rgimchak ini" shakliga ega bo'lgan 14 m² maydonda 3

partiya davom etadigan “DAS” sport o‘yini yaratilgan (17.05.2023, ixtironing xalqaro patent tasnifi indeksi № A63B 67/00 (UZ IAP 07407), № A63B 71/02 (UZ IAP 07407) va rasman amaliyotga tatbiq etilgan (15.10.2022 y).

modifikatsiyalashtirilgan mazkur testlar va ishlab chiqilgan “DAS” sport o‘yini yordamida vaziyatli harakatlar bilan bog‘liq koordinatsion qobiliyatlarni o‘naqay-chapaqay yo‘nalishlar bo‘ylab namoyish etishda yuzaga keladigan asimmetrik farqlar darajasini aniqlash (baholash) metodikasini ishlab chiqilgan;

sport o‘yinlariga xos koordinatsion qobiliyatlarni simmetrik tartibda shakllantirishda ishlab chiqilgan vaziyatli o‘yin mashqalari va “DAS” sport o‘yini samarali ekanligi tadqiqotlar asosida tasdiqlangan bo‘lib, ularni amaliyotga joriy qilinishi tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tanlangan tadqiqot uslublari, shu jumladan sport amaliyotida joriy etilgan an’anaviy va modifikatsiyalashtirilgan testlarni qo‘llashda tizimli yondashuv, standartlashtirilgan tartib-qoidalar, rasman qabul qilingan tashkiliy, yagona metodologik prinsiplar va shart-sharoitlarga rioya qilinganligi, test-retest sinovlarini o‘tkazilganligi, o‘tkazilgan tadqiqot natijalarini matematik statistika usullari yordamida qiyosiy tahlil ostiga olinganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shu bilan belgilanganki, tanlangan ilmiy uslublar, an’anaviy va modifikatsiyalashtirilgan testlar yordamida olingan natijalar, ayniqsa ishlab chiqilgan hamda sinovdan o‘tkazilgan vaziyatli “DAS” sport o‘yini tadqiqot jarayonida qo‘llash natijalari sport o‘yinlari bilan shug‘ullanuvchi sportchilarga xos koordinatsion qobiliyatlarning yangi qirralarini ochib berganligi bilan ifodalanadi. Jumladan mazkur innovatsion harakatli o‘yin jamoali sport o‘yini sifatida o‘naqay-chapaqay yo‘nalishlar bo‘ylab dasturlashtirilgan harakat tezligi, koordinatsiyasi va aniqligini bir vaqtni o‘zida ham shakllantirish, ham baholash imkoniyatini yaratishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati tananing o‘ng-chap tomon bo‘ylab aylanma harakatlar ta’sirida statik va dinamik muvozanatni saqlash turg‘unligi, yaratilgan “DAS” sport o‘yinida o‘ng-chap tomonlama yo‘nalishlar bo‘ylab bajariladigan dasturlashtirilgan harakat tezligi, koordinatsiyasi va aniqligi o‘rtasida yuz beradigan asimmetrik farqni vaqt o‘lchov birligida hamda ballar asosida obyektiv baholash imkoniyati yaratilganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy etilishi. “Koordinatsion qobiliyatlarni “DAS” sport o‘yini yordamida rivojlantirish va baholash metodikasi (maktab o‘quvchilari va voleybolchilar misolida)” tadqiqot ishi samaradorligi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

jamoali sport turlariga xos koordinatsion qobiliyatlarni (muvozanat saqlash turg‘unligi, o‘zgaruvchan yo‘nalishlar bo‘ylab yugurish tezligi, harakat aniqligi va h.k.) rivojlantirishda amaldagi an’anaviy testlarning modifikatsiyalashtirilgan variantlari va ilk bor yaratilgan yangi sport o‘yini vositalarini mashg‘ulotlarga tatbiq etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 15-fevraldagi 03-01/03/17/17-03/1611-sonli ma’lumotnomasi). Natijada maydon bo‘ylab o‘naqay-chapaqay yo‘nalishlarda yugurish tezligining nisbiy o‘sish sur’ati muvofiq ravishda 9,25% ham 8,92% gacha o‘sgan. 3,5 m da tik qoldirilgan dastalarni o‘ng qo‘l bilan

ushlashlar soni 6,57% dan 12,65% gacha, 4 m da - 8,24% dan 15,09% gacha, 4,5 m da - 9,41% dan 14,13% gacha o'sgan. Chap qo'lda esa 3,5 m da 9,94% dan 23,10% gacha, 4 m da - 5,97% dan 29,19% gacha, 4,5 m da 7,55% dan 49,09% gacha o'sgan;

malakali voleybolchi-talabalar bilan o'tkazilgan an'anaviy mashg'ulotlarda yetakchi koordinatsion qobiliyatlarni shakllanish sur'atini ixtisoslashtirilgan testlar va yangi sport o'yini dasturi yordamida integral tartibda aniqlash metodikasi voleybolchi talabalar mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 15-fevraldagi 03-01/03/17/17-03/1611-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'ng-chap tomon bo'ylab yugurish tezligi o'rtasida kuzatiladigan asimmetrik farq 7,02% dan 3,72% gacha qisqargan (simmetriyalashgan), tik holatda qoldirilgan dastakni o'ng-chap qo'l bilan ushlab qolish soni o'rtasida yuzaga kelgan asimmetrik farq esa 16,7% dan 36,5% gacha kamaygan yoki ushbu harakatlar soni simmetriyalashgan;

muvozanat saqlash turg'unligi "sust" va "yaxshi" rivojlangan malakali voleybolchi-talabalarda yangi sport o'yinida qo'llaniladigan dastalarni o'ng va chap qo'lda ushlab asimmetriyasi aniqlangan hamda ushbu qobiliyatni simmetrizatsiyalash imkoniyatlarini ishonchli sur'atlarda oshirish hisobiga harakatlar texnikasi takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar voleybolchi-talabalar mashg'ulotlariga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 15-fevraldagi 03-01/03/17/17-03/1611-sonli ma'lumotnomasi). Natijada aylanma harakat yuklamasi ta'sirida 3,5 m oraliqda tik qoldirilgan dastlarni o'ng-chap qo'l bilan ushlab soni o'rtasida yuz bergan asimmetrik farq 7,14 %dan 36,52 %gacha kamaygan. Nazorat va tajriba guruhlarida o'rtasida "DAS" sport o'yini bo'yicha o'tkazilgan musobaqada TG jamoasi 148 ball to'plab (67,%) g'alabaga erishgan;

malakali voleybolchi-talabalarining asimmetrik farq bilan ijro etiladigan yetakchi koordinatsion qobiliyatlarni o'ng va chap tomonlama qo'llaniladigan yangi sport o'yini mashqlari yordamida simmetrik tartibda samarali shakllantirish texnologiyasi va harakatlarni baholash mezonlari voleybol bo'yicha sport-pedagogik mahoratni oshirish guruhlarida shug'ullanuvchi voleybolchi-talabalar mashg'ulotlariga tatbiq qilingan. Shuningdek, ayrim sport maktablari va o'rta maktab sport to'garaklarida o'tkaziladigan o'quv-mashg'ulotlariga joriy etilgan. O'tkazilgan joriy va ekperimental tadqiqotlar natijalari, ularning qiyosiy tahlili hamda tadqiqot materiallari, shu jumladan ishlab chiqilgan sport o'yini amaliyotga joriy etilishi asosida "Harakat koordinatsiyasi va uni innovatsion o'yin yordamida shakllantirish afzalliklari" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi "314"-sonli buyrug'i № 314). Natijada sport o'yinlariga xos koordinatsion qobiliyalarni samarali shakllantirish va obyektiv baholash imkoniyati kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 11 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar bo'yicha asosiy ilmiy natijalarni nashr etishga tavsiya etilgan

jurnallarda 7 ta maqola (respublika ilmiy jurnallarida 4 ta, xorijda 3 ta), 1 ta o‘quv qo‘llanmasi chop etilgan.

Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya “Kirish”, 4 ta bobdan iborat bo‘lib, 148 sahifalik matn, 28 ta jadval, 47 ta rasm, xulosalar, amaliy tavsiyalar, ilovalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda 5 ta joriy etish dalolatnomalaridan iborat.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va uning amaliyot uchun zarurligi asoslab berilgan, tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bilan bog‘liqligi, dissertatsiyada ko‘tarilgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilgan ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi, maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti va tadqiqot uslublari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi va e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida asosli ma‘lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning “**Sport amaliyotiga xos koordinatsion qobiliyatlar, ularni shakllantirish va baholash muammolari**” deb nomlangan birinchi bobida jismoniy tarbiya va sport faoliyatida koordinatsion qobiliyatlarning o‘rni, ularning pedagogik asoslari, neyrofiziologik mohiyati va ilmiy-amaliy ahamiyati so‘nggi yillarda chop etilgan bibliografik manbalar tahlili yordamida ochib berilgan (N.A.Bernshteyn, P.K.Anoxin, L.P.Matveyev, V.N.Platonov, Y.V.Verxoshanskiy, J.N.Xolodov, F.A.Kerimov, V.I.Lyax, L.D.Nazarenko, N.V.Moskvin, V.A.Moskvina, J.Simonek, Y.B.Sologov). Aniqlanishicha, koordinatsion qobiliyatlarni (o‘zgaruvchan yo‘nalishli harakat reaksiyasi, aniqligi, muvozanat saqlash va h.k.) shakllantiruvchi mashqlarni qo‘llashda ularning har tomonlamalik qiymatiga e‘tibor berish yoki, boshqacha qilib aytganda, o‘ng va chap qo‘l-oyoq bilan o‘ng va chap tomonga burilish-aylanish elementlarini bir xil mahorat bilan ijro etishga urg‘u berish maqsadga muvofiq ekan. Aynan shunday asosda koordinatsion qobiliyatlarga erta yoshlikdan boshlab sayqal berib borish sport amaliyotiga, ayniqsa, o‘ta keskin o‘zgaruvchan vaziyatlarda kechadigan sport o‘yinlariga xos texnik-taktik usullar ko‘lamini kengaytirishi va harakatlar zahirasini boyitishi mumkin ekan. Manbalardan kuzatildiki, jismoniy tarbiya tizimida ham, sport amaliyotida ham bir vaqtning o‘zida tezkorlikka asoslangan vaziyatli koordinatsion qobiliyatlarni shakllantirish va obyektiv baholash imkoniyatini yaratuvchi innovatsion mashqlar yoki o‘yinlar turlari amaliyotga joriy etilmagan ekan.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqot uslublari va uni tashkil qilish**”- deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot uslublari, jismoniy tarbiya va sport faoliyatida qo‘llanilgan an‘anaviy pedagogik testlarning modifikatsiyalashtirilgan (ya‘ni shu testlarga xos harakat elementlarini o‘ng va chap qo‘lda, o‘rnatilgan fishkalarini chap va o‘ng tomonidan aylanib makkisimon yugurish) variantlari, tezkorlikka asoslangan vaziyatli koordinatsion qobiliyatlarni bir vaqtni o‘zida shakllantirish va baholash maqsadida ixtiro qilingan hamda patentlangan (17.05.2023, ixtironing xalqaro patent tasnifi indeksi № A63B 67/00 (UZ IAP 07407), № A63B 71/02 (UZ IAP 07407), mualliflik

guvohnomasi № 002552, 22.10.2020 y.) jamoali “DAS”sport o‘yining funksional mohiyati, mazmuni, ulardan foydalanish texnologiyasi ochib berilgan. “DAS-Sport o‘yini” “O‘rgimchak ini” shaklida maxsus uskuna bilan 3- 3,5- 4- 4,5- 5 m oraliqlar bo‘ylab chiziladigan 3-8 burchakli 14 m²ga teng maydonda sheriklar tomonidan tik qoldiriladigan dastalarni qarama-qarshi yo‘nalishda (chap va o‘ng tomon), bir vaqtni o‘zida ham shakllantirish, ham baholash (o‘ng qo‘lda- 1 ball- n-8=8 ball, chap qo‘lda- 2 ball- n-8=16 ball, juftlikda- 3 ball- n-8=24 ball) imkoniyatini yaratadi (1-rasmga qarang).



1-rasm. O‘yin maydoni: a- Burchaklarni yig‘indisi; b- O‘yinchilar joylashish nuqtalari; c- Masofalar o‘zgarishi; d- O‘yinchilar joylashishi (juftlik misolida).

Mazkur “o‘yin” va uning tarkibiga kiritilgan harakat elementlari 11-15 yoshli maktab o‘quvchilari va malakali voleybolchi-talabalar jalb qilingan joriy hamda pedagogik tajriba asosida sinovdan o‘tkazilgan.

Barcha tadqiqotlar 3 bosqichda amalga oshirildi: **1 bosqich** (2018 yil yanvar-avgust, sentabr-dekabr oylari)- dissertatsiyaning “Kirish” qismi va mavzu doirasida chop etilgan bibliografik manbalar tahlili yoritilgan- 1 bob. **2 bosqichda** (2019 yil sentabrdan 2020 yilning mart oyigacha) rejalashtirilgan tadqiqotlar metodlari va

koordinatsion qobiliyatlarni baholashga mo'ljallangan an'anaviy testlar modifikatsiyalashtirilgan, tadqiqotlar ob'yekti, predmeti, ularni o'tkazish tartibi ishlab chiqilgan va joriy tadqiqotlar o'tkazildi. **3 bosqichda** (2021 yilning sentabr oyidan 2022 yilning iyun oyigacha) pedagogik tajriba tashkil etilgan va olingan natijalar guruhlar kesimida tabaqalashtirilgan tartibda matematik statistika yordamida qiyosiy tahlil qilindi. Shu bosqichda o'tkazilgan barcha tadqiqotlar natijalari qiyosiy tahlil qilinib, boblar bo'yicha hulosalar, umumiy hulosalar, ilova va foydalanilgan bibliografik manbalar ro'yhati ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning "**Ixtiro qilingan "DAS" sport o'yini, uni o'tkazish va amaliy ahamiyatini ilmiy asoslash**" deb nomlangan uchinchi bobida ushbu "o'yin"ning funksional mohiyati, o'yin maydoni va ishtirokchilar, uni o'tkazish tartibi, o'yin natijalarini baholash, o'yin qoidalari, hakamlik qilish texnologiyasi yoritilgan (1-jadvalga qarang (chap qo'l misolida)).

1-jadval

Chap qo'lda buyurtmasi uchun masofalar, uddalay olgan va uddalay olmagan ballar

| Masofalar | Masofalar uchun belgilangan ball | Uddalay olgan o'yinchilarga beriladigan ball | | | | | | | |
|-----------|----------------------------------|--|----------|----------|----------|----------|----------|----------|---------|
| | | Uddalay olmagan o'yinchilarga beriladigan jarima ballari va yo'qotilgan ballar | | | | | | | |
| | | O'yinchilar soni | | | | | | | |
| | | 8 | 7 | 6 | 5 | 4 | 3 | 2 | 1 |
| 1 | 2 | 16 32 | 14 28 | 12 24 | 10 20 | 8 16 | 6 12 | 4 8 | 2 4 |
| 2 | 3 | 24 48 | 21 42 | 18 36 | 15 30 | 12 24 | 9 18 | 6 12 | 3 6 |
| 3 | 4 | 32 64 | 28 56 | 24 48 | 20 40 | 16 32 | 12 24 | 8 16 | 4 8 |
| 4 | 5 | 40 80 | 35 70 | 30 60 | 25 50 | 20 40 | 15 30 | 10 20 | 5 10 |
| 5 | 6 | 48 96 | 42 84 | 36 72 | 30 60 | 24 48 | 18 36 | 12 24 | 6 12 |

Mazkur bobda "DAS" sport o'yini va uning tarkibiga kiritilgan qator harakat elementlarining amaliy ahamiyati va ularning samaradorligini aniqlash maqsadida 11-15 yoshli maktab o'quvchilari, malakali voleybolchi va basketbolchi-talabalar ustida o'tkazilgan tadqiqot natijalari qiyosiy tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlar natijalaridan ma'lum bo'ldiki, tezkorlikka asoslangan koordinatsion qobiliyatlarni ifodalovchi joydan ikki oyoq bilan debsinib oldinga, orqaga, o'ng va chap tomonlar bo'ylab uzunlikka sakrash ko'nikmalari 11-15 yoshli o'g'il bolalarda ham, shu yoshli qiz bolalarda ham harakat faoliyatida, shu jumladan jismoniy tarbiya darslarida hamda sport turlarida bo'yicha mashg'ulotlarda tabiatan odat tusiga kirgan oldinga sakrash oralig'i nisbatan muvofiq me'yoriy talablar doirasida qayd etilgan. Masalan, o'g'il bolalarda bu ko'rsatkich 163,9±9,8-190,1±9,1 sm oraliqda, qiz bolalarda 147,7±8,4-

173,1±8,7 sm.ni tashkil etgan. Biroq inson uchun noodatiy bo'lgan orqa va yon tomonlar bo'ylab sakrash oraliqlari keskin qisqargan, ayniqsa chap tomonga sakrash. 2,0-2,5 barobariga kamayib ketgan. Jumladan, 11 yoshli o'g'il bolalarda oldinga sakrash 163,9±9,8 sm.ni tashkil etgan bo'lsa, 117,0±10,5 sm.ga, o'ng tomonga-112,8±9,2 sm, chap 73,2±10,4 sm.ga teng bo'lgan. Shu yoshli qizlarda 147,7±8,4 sm; 106,6±11,2; 102±10,5 sm; 64,8±11,2 sm. 15 yoshli o'g'il bolalarda: 190,1±9,1 sm; 143,6±12,2 sm; 140,1±11,05 sm; 91,8±12,6 sm. Qiz bolalarda: 173,1±8,7 sm; 126,7±11,5 sm; 122,05±12,7 sm; 79,1±11,9 sm.ga teng bo'lgan. 12-14 yoshli maktab o'quvchilarida ham shunga o'hshash natijalar kuzatilgan. E'tiborli joyi shundaki, oldinga-orqaga, o'ng va chap tomonga sakrash oraliqlari o'rtasida katta asimmetrik farq mavjud ekanligi aniqlangan (2-jadvalga qarang).

2-jadval

11-15 yoshli maktab o'quvchilarida turli tomonlarga ikki oyoq bilan debsinib uzunlikka sakrash natijalari (sm)- n= 48

| Yoshi | Jinsi | Testlar | | | |
|-------|-------|------------|--------------|--------------|--------------|
| | | Oldinga | Orqaga | O'ng tomonga | Chap tomonga |
| 11 | O' | 163,9±9,8 | 117,0±10,5 | 112,8±9,2 | 73,2±10,4 |
| | Q | 147,7±8,4 | 106,6±11,2 | 102,01±10,5 | 64,8±11,2 |
| 12 | O' | 171,5±7,9 | 126,3±10,4 | 124,8±12,1 | 79,8±10,01 |
| | Q | 157,1±8,8 | 112,1±11,02 | 107,9±9,3 | 68,1±11,1 |
| 13 | O' | 174,1±10,3 | 129,3±11,3 | 128,5±10,6 | 82,2±9,5 |
| | Q | 162,9±9,1 | 116,9±10,1 | 112,4±10,5 | 72,2±10,8 |
| 14 | O' | 181,9±9,5 | 140,01±10,5 | 137,9±12,3 | 87,8±9,7 |
| | Q | 169,5±10,3 | 121,05±10,03 | 118,5±11,6 | 78,3±11,1 |
| 15 | O' | 190,1±9,1 | 143,6±12,2 | 140,1±11,05 | 91,8±12,6 |
| | Q | 173,1±8,7 | 126,7±11,5 | 122,05±12,7 | 79,1±11,9 |

Izoh: O'-o'g'il bolalar; Q-qiz bolalar

10 m oraliqda o'rnatilgan 2 ta fishkani chap va o'ng tomonidan aylanib 3x10 m.ga makkisimon yugurish tezligi yaqqol ko'zga tashlanuvchi asimmetrik farqlar bilan qayd etilganligi aniqlandi. Masalan, 11-15 yoshli o'g'il bolalarda fishkalarni chap tomonidan aylanib yugurish tezligi 9,1±0,2 - 8,2±0,2 s, shu yoshli qiz bolalarda-9,3±0,07- 8,9±0,9 s oraliqlaridan qayd etilgan bo'lsa, shu fishkalarni o'ng tomonidan aylanib yugurish tezligi muvofiq ravishda: o'g'il bolalarda 10,3±0,4 - 9,5±0,5 s.ni; qiz bolalarda 10,6±0,5 - 10,2±0,11 s.ni tashkil etgan. 12, 13, 14 yoshli o'g'il va qiz bolalarda ham fishkalarni chap hamda o'ng tomondan aylanib yugurish tezligi o'rtasida 11-15 yoshli o'g'il va qiz bolalarnikiga o'hshash sezilarli asimmetrik farqlar yuzaga kelgan. Bunday ko'rsatkichlar tezkorlik-kuch sifatlariga asoslangan koordinatsion qobiliyatlarni proporsional nisbatda shakllanmaganligidan darak beradi. Vaholanki, vaziyatli sport turlarida, ayniqsa voleybol va basketbolda noqulay tomonlarga sakrash yoki qisqa oraliqlar chegarasini chap tomonidan ham, o'ng tomonidan ham bir hil tezlikda va mahorat bilan aylanib yugurish qobiliyati boshqa texnik-taktik usullarini samarali bajarishga zamin yaratadi.

Ixtiro qilingan “DAS” sport o‘yiniga mansub bo‘lgan mashqlar- turli oraliqlarda (2 m, 2,5 m, 3 m) sheriklar tomonidan tik qoldirilgan dastalarni 10 imkoniyatdan yugurib borib o‘ng va chap qo‘l bilan ushlab olish soni 11-15 yoshli maktab o‘quvchilarida bir-biridan keskin farq qiluvchi ko‘rsatkichlar bilan qayd etilgani ma‘lum bo‘ldi. Masalan, 11-13 yoshli o‘g‘il bolalarda (tadqiqotga faqat o‘g‘il bolalar jalb qilingan) 2 m oraliqda tik qoldirilgan dastalarni yugurib borib o‘ng qo‘lda ushlab olish soni $4,3\pm 1,6$ - $6,3\pm 1,01$ marta oraliqda, chap qo‘l bilan ushlab olish soni $2,75\pm 0,9$ - $3,9\pm 1,3$ marta oraliqda namoyish etildi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

11-15 yoshli maktab o‘quvchilarida turli oraliqlarda tik qoldirilgan dastani 10 imkoniyatdan yugurib ushlab olish soni- n=48

| Yoshi | Dastani ushlaydigan qo‘l | Tik qoldiriladigan dasta oraliq‘i | | | |
|-------|--------------------------|-----------------------------------|----------------|----------------|----------|
| | | 2 m | 2.5 m | 3 m | KF |
| 11 | O‘ng | $4,3\pm 1,6$ | $1,8\pm 0,1$ | - | 2,5 |
| | Chap | $2,75\pm 0,9$ | $0,3\pm 1,2$ | - | 2,45 |
| AF | | $1,55\pm 0,7$ | $1,5\pm 1,1$ | - | |
| 12 | O‘ng | $5,2\pm 1,05$ | $2,9\pm 1,9$ | - | 2,3 |
| | Chap | $3,15\pm 1,5$ | $2,05\pm 1,01$ | - | 1,1 |
| AF | | $2,05\pm 0,45$ | $0,85\pm 0,9$ | - | |
| 13 | O‘ng | $6,3\pm 1,01$ | $3,45\pm 1,2$ | 1,05 | 2,85 |
| | Chap | $3,9\pm 1,3$ | $3,01\pm 1,3$ | - | 0,9 |
| AF | | $2,4\pm 0,3$ | $0,45\pm 0,1$ | 1,05 | |
| 14 | O‘ng | $7,9\pm 0,05$ | $4,8\pm 0,6$ | $1,9\pm 1,1$ | 3,1-6,05 |
| | Chap | $4,8\pm 1,5$ | $3,1\pm 1,01$ | $0,5\pm 0,1$ | 1,7-4,3 |
| AF | | $3,1\pm 1,45$ | $1,7\pm 0,1$ | $1,4\pm 1,01$ | |
| 15 | O‘ng | $9,1\pm 0,5$ | $6,1\pm 1,5$ | $3,45\pm 1,01$ | 3,01-5,6 |
| | Chap | $6,9\pm 1,7$ | $4,01\pm 0,8$ | $2,15\pm 0,7$ | 2,9-4,7 |
| AF | | $2,2\pm 1,2$ | $2,1\pm 0,7$ | $1,3\pm 0,3$ | |

Izoh: Tadqiqotda faqat o‘g‘il bolalar ishtrok etgan. AF-asimmetrik farq; KF-ko‘rsatkichlar farqi.

2,5 m oraliqda tik qoldirilgan dastalarni ushlab olish soni muvofiq ravishda: $1,8\pm 0,1$ - $3,45\pm 1,2$ marta; $0,3\pm 1,1$ - $3,01\pm 1,3$ marta oraliqda namoyish etilgan. 3 m oraliqda ijro etilishi rejalashtirilgan bunday mashqni mazkur yoshli bolalar bajara olishmadi. 14-15 yoshli bolalarda 2 m.da tik qoldirilgan dastalarni o‘ng qo‘l bilan ushlab olish $7,9\pm 0,05$ - $9,1\pm 0,5$ martaga, chap qo‘l bilan- $4,8\pm 1,5$ - $6,9\pm 1,7$ marta oraliqda qayd etilgan. 2,5 m oraliqda: o‘ng qo‘lda- $4,8\pm 0,6$ - $6,1\pm 1,5$; chap qo‘lda- $3,1\pm 1$ - $4\pm 0,8$ martaga teng bo‘lgan. 3 m oraliqda esa: o‘ng qo‘lda- $1,9\pm 1,1$ - $3,45\pm 1,01$ martani; chap qo‘lda- $0,5\pm 0,1$ - $2,15\pm 0,7$ martani tashkil etgan. Ko‘rinib turibdiki, bunday tadqiqotga jalb qilingan barcha yosh guruhlariga mansub bolalarda mazkur mashqni chap qo‘lda bajarish ko‘rsatkichlari o‘ng qo‘lda qayd etilgan natijalarga nisbatan keskin tushib ketgan yoki asimmetrik farqlar 1,5-3,5 barobardan ortib ketgan.

Malakali voleybolchi va basketbolchi- talabalarda, afsuski, o‘rganilayotgan

koordinatsion qobiliyatlar ko'rsatkichlarining asimmetrik farqlari 11-15 yoshli maktab o'quvchilarida qayd etilgan asimmetrik farqlardan ham ortiq bo'lgani aniqlandi. Masalan, voleybolchilarda oldinga sakrash oralig'i $225,9 \pm 6,1$ sm.ni tashkil etgan bo'lsa, orqaga sakrash- $99,8 \pm 5,8$ sm.ga teng bo'lgan. Asimmetrik farq $126,1$ sm bilan qaydetilgan. Basketbolchilarda: $226,2 \pm 5,6$; $98,7 \pm 9,4$; $127,5$ sm. O'ng tomonga sakrash- voleybolchilarda: $172,2 \pm 5,1$ sm; chap tomonga $160,9 \pm 4,5$ sm; asimmetrik farq - $11,3$ sm. Basketbolchilar- o'ng tomonga sakrash- $173,4 \pm 6,01$; chap tomonga- $161,8 \pm 7,3$ sm; ular o'rtasidagi asimmetrik farq $11,6$ sm.ni tashkil etgan.

10 m oraliqda o'rnatilgan 2 ta fishkani chap va o'ng tomonidan aylanib 3×10 m yugurish tezligi ham sezilarli farq bilan qayd etilgan. Jumladan, voleybolchilarda fishkalarini chap tomondan aylanib yugurish tezligi $7,35 \pm 0,11$ s bilan ifodalangan bo'lsa, o'ng tomondan aylanib yugurish tezligi $8,78 \pm 0,23$ s.ni tashkil etgan. Asimmetrik farq $1,42$ s.ga teng bo'lgan. Basketbolchilarda esa ushbu ko'rsatkichlar: $7,86 \pm 0,3$; $9,67 \pm 0,87$; $1,81$ s bilan qayd etilgan

Turli oraliqlarda sheriklar tomonidan tik qoldirilgan dastalarni yugurib borib o'ng va chap qo'l bilan ushlab olish natijalari bo'yicha kuzatilgan real ko'rsatkichlar (sonlari) tik qoldirilgan dasta oraliqlari ortgan sari kamayib borganligi aniqlandi.

Masalan, 2 m oraliqda tik qoldirilgan dastalarni yugurib borib o'ng qo'lda ushlab olish soni voleybolchilarda ham, basketbolchilarda 10 imkoniyatdan 10 martani tashkil etgan. Lekin, ularni chap qo'lda ushlab olishlar soni voleybolchilarda $8,9 \pm 0,3$ martaga, basketbolchilarda $9,05 \pm 0,4$ martaga teng bo'lgan (4-jadvalga qarang).

4-jadval

Voleybolchi va basketbolchi- talabalarda turli oraliqlarda tik qoldirilgan dastani 10 imkoniyatdan yugurib ushlab olish soni- n= 48

| Dasta oralig'i | Dastani ushlab olish | Voleybolchilar | Basketbolchilar | KF |
|----------------|----------------------|-----------------|-----------------|------|
| 2 m | O'ng qo'lda | $10,02 \pm 0,4$ | $10,05 \pm 0,1$ | - |
| | Chap qo'lda | $8,9 \pm 0,3$ | $9,05 \pm 0,4$ | 0,15 |
| | AF | 1,01 | 0,95 | 0,15 |
| 2,5 m | O'ng qo'lda | $8,2 \pm 1,5$ | $8,05 \pm 0,5$ | 0,05 |
| | Chap qo'lda | $4,1 \pm 0,8$ | $4,4 \pm 0,05$ | 0,05 |
| | AF | 4,1 | 3,65 | 0,45 |
| 3 m | O'ng qo'lda | $6,03 \pm 1,3$ | $6,1 \pm 0,8$ | 0,05 |
| | Chap qo'lda | $4,9 \pm 0,7$ | $4,7 \pm 0,5$ | 0,05 |
| | AF | 1,18 | 1,4 | 0,5 |

Izoh: AF- asimmetrik farqi; KF- ko'rsatkichlar farqi

Asimmetrik farq muvofiq ravishda: 1,1 va 0,95 martani tashkil etgan. 2,5 m oraliqda tik qoldirilgan dastalarni o'ng qo'lda ushlab olish soni birinchi guruhda $8,2 \pm 1,5$ marta, ikkinchi guruhda $8,05 \pm 0,5$ marta bilan qayd etilgan bo'lsa, chap qo'lda- bu ko'rsatkichlar deyarli 2 barobarga kamayib ketganligi kuzatildi ($4,1 \pm 0,8$ va $4,4 \pm 0,05$ marta). Asimmetrik farqlar 4,1 va 3,65 marta bilan qayd etildi. 3 m oraliqda tik

qoldirilgan dastalarni o'ng qo'lda ushlab olishlar soni voleybolchilarda $6,03 \pm 1,3$ martani, basketbolchilarda $6,1 \pm 0,8$ martani tashkil etgan. Chap qo'lda muvofiq tartibda $4,9 \pm 0,7$ va $4,7 \pm 0,5$ martaga teng bo'lganligi aniqlandi. Asimmetrik farqlar 1,18 va 1,4 marta bilan ifodalangan.

10 m oraliqda o'rnatilgan 2 ta fishkani chap va o'ng tomonidan aylanib 3×10 m.ga makkisimon yugurish misolida o'rganilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, fishkalarni chap tomonidan aylanib yugurish tezligi tinch holatda 11 yoshli bolalarda $8,9 \pm 0,5$ s, 15 yoshli bolalarda $8,2 \pm 0,3$ s, malakali voleybolchilarda $7,28 \pm 0,11$ s, basketbolchilarda $7,79 \pm 0,31$ s.ni tashkil etgan. Ammo, ushbu ko'rsatkichlar gavdani 90° oldinga egilgan holatida tanani 10 marta aylanma harakatlantirish ta'sirida fishkalarni chap tomonidan aylanib yugurish tezligi muvofiq ravishda: $11,2 \pm 1,03$; $9,7 \pm 0,8$; $8,39 \pm 0,17$; $8,87 \pm 0,22$ s.gacha susayib ketganligi kuzatildi (5-jadvalga qarang).

5-jadval

Maktab o'quvchilari, voleybolchi va basketbolchi- talabalarda 3×10 m.ga yugurish tezligining gavdani oldinga 90° egilgan holatida tanani 10 marta aylantirish ta'sirida o'zgarish dinamikasi (s)-n=48

| Testlar | O'quvchilar | | Voleybolchilar | Basketbolchilar |
|---------------------------------------|-----------------|-----------------|-----------------|------------------|
| | 11 yosh | 15 yosh | | |
| 1.FCHTAYU | $8,9 \pm 0,5$ | $8,2 \pm 0,3$ | $7,28 \pm 0,11$ | $7,79 \pm 0,31$ |
| 2.FO'TAYU | $10,5 \pm 0,9$ | $9,4 \pm 0,7$ | $8,83 \pm 0,27$ | $9,25 \pm 0,68$ |
| AF | 1,6 | 1,2 | 1,55 | 1,46 |
| Tanani 10 marta aylantirish ta'sirida | | | | |
| 1 | $11,2 \pm 1,03$ | $9,7 \pm 0,8$ | $8,39 \pm 0,17$ | $8,87 \pm 0,22$ |
| 2 | $12,9 \pm 1,17$ | $11,3 \pm 1,05$ | $9,96 \pm 0,91$ | $10,67 \pm 1,12$ |
| AF | 1,7 | 1,6 | 1,57 | 1,8 |
| TX-KF-1 | 2,3 | 1,5 | 1,11 | 1,08 |
| YUT-KF-2 | 2,4 | 1,9 | 1,13 | 1,42 |


Izoh: 1.Fishkani chap tomonidan aylanib yugurish.2.Fishkani o'ng tomonidan aylanib yugurish. AF-asimmetrik farq; KF- ko'rsatkichlar farqi; TH- tinch holatdagi o'zaro farq; YuT- yuklama ta'siridagi o'zaro farq. Tadqiqotga faqat o'g'il bolalar jalb qilingan.

Dissertatsiyaning “Malakali voleybolchi-talabalar misolida vaziyatli koordinatsion qobiliyatlarni ixtiro qilingan “DAS” sport o'yini yordamida rivojlantirish samaradorligi”- deb nomlangan to'rtinchi bobida koordinatsion qobiliyatlarni jadal rivojlantirishga mo'ljallangan “DAS” sport o'yiniga tayyorlovchi 4 blokdan iborat umumiy, maxsus ishlab chiqilgan jismoniy mashqlar hamda maxsus harakatli o'yinlar majmualari 10 oylik pedagogik tajriba davomida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari qiyosiy tahlil qilingan (2-rasmga qarang).


Ushbu tadqiqotlar natijalaridan aniqlandiki, ixtiro qilingan “DAS” sport o'yiniga xos bo'lgan turli tomonlarga sakrash (oldinga, orqaga, o'ng va chap tomonlarga), fishkalarni chap va o'ng tomonidan aylanib makkisimon yugurish, turli oraliqlarda tik qoldirilgan dastalarni yugurib borib o'ng va chap qo'l bilan ushlab olish koordinatsion qobiliyatlar tajriba davomida faqat an'anaviy mashg'ulotlarda shug'ullangan NGda va

2-blok. Tezkorlikka asoslangan vaziyatli koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantiruvchi maxsus ishlab chiqilgan jismoniy mashqlar majmuasi


1) 12 nafar o'yinchi o'ng va chap qo'li bilan dastani yerga vertikal tiragan holatda bir-biridan 3 m oraliqda "kolonna" safida turib; signal berilgan zahoti dastalar qo'yib yuboriladi va orqadagi o'yinchilar yugurib o'ng (chap) qo'li bilan ushlab- 4 martadan 2 seriya;






2) 1- mashq, "shirenga" safida bajari- ladi- 5 martadan 2 seriya;



3) 1 mashqdagidek faqat juftlikda.




4) 1-3 mashqlar gavnani 90°oldinga egilgan holatida tanani 15 marta aylantirish yuklamasi ta'sirida ijro etiladi.





3-blok. Tezkorlikka asoslangan vaziyatli koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantiruvchi maxsus ishlab chiqilgan harakatli o'yinlar

1. "Markazda sheriklar"



2. "Dasta markazda!"





2-rasm. Maxsus ishlab chiqilgan jismoniy mashqlar hamda maxsus harakatli o'yinlar majmualari.

shu jarayonda biz tomonamizdan tavsiya etilgan eksperimental mashg'ulotlarda shug'ullanib borgan TGda tajriba yakuniga kelib turlicha ko'rsatkichlar bilan qayd etilganligi aniqlandi (6-jadvalga qarang).

6-jadval


Malakali voleybolchi-talabalardan iborat nazorat va tajriba guruhlarida turli tomonlarga ikki oyoq bilan depsinib uzunlikka sakrash natijalarining tajriba davomida o'sish sur'ati (sm) (n = 24)

| Testlar | Guruh | Tajriba boshida | | Tajriba oxirida | | O'sish | | t | P |
|----------------------|-------|-----------------|----------|-----------------|----------|--------|-------|------|-------|
| | | \bar{X} | σ | \bar{X} | σ | A | N % | | |
| Oldinga sakrash | NG | 226,3 | 7,48 | 230,9 | 7,26 | 4,6 | 2,03 | 2,16 | <0,05 |
| | TG | 226,7 | 8,72 | 236,6 | 8,11 | 9,9 | 4,37 | 4,07 | <0,01 |
| Orqaga sakrash | NG | 101,4 | 5,56 | 104,1 | 5,56 | 2,8 | 2,76 | 1,74 | >0,05 |
| | TG | 100,8 | 8,92 | 112,4 | 9,32 | 11,6 | 11,51 | 4,41 | <0,01 |
| AF | NG | 125,01 | | 126,8 | | 1,8 | 1,44 | | |
| | TG | 125,9 | | 124,2 | | 1,7 | 1,35 | | |
| O'ng tomonga sakrash | NG | 173,3 | 7,79 | 177,5 | 7,38 | 4,2 | 2,42 | 1,92 | >0,05 |
| | TG | 174,5 | 14,77 | 188,6 | 15,43 | 14,1 | 8,08 | 3,23 | <0,01 |
| Chap tomonga sakrash | NG | 160,8 | 8,47 | 165,1 | 8,11 | 4,3 | 2,67 | 1,80 | >0,05 |
| | TG | 161,7 | 15,41 | 178,8 | 16,27 | 17,1 | 10,58 | 3,74 | <0,01 |
| AF | NG | 12,5 | | 12,4 | | 0,1 | 0,80 | | |
| | TG | 12,8 | | 9,8 | | 3,01 | 23,44 | | |

Izoh: NG-nazorat guruhi; TG - tajriba guruhi; AF-asimmetrik farq; A-absolyut o'sish; N - nisbiy o'sish (%).

Masalan, oldinga sakrash oralig‘i tajribadan avval ikki guruhda ham bir-biridan deyarli farq qilmagan bo‘lsada (NGda $226,3 \pm 7,48$ sm, TGda $226,7 \pm 8,72$ sm) lekin tajriba yakuniga kelib mazkur ko‘rsatkichlar NG da $230,9 \pm 7,26$ sm.gacha o‘sgan ($P > 0,05$) yoki uning absloyut o‘shishi $4,6$ sm.ni, nisbiy o‘shish sur‘ati $2,03$ % ni tashkil etgan. TGda bu ko‘rsatkichlar $226,7 \pm 8,72$ sm.dan $236,6 \pm 8,11$ sm.gacha o‘sgan ($P < 0,01$) yoki uning absloyut o‘shish darajasi $9,9$ sm.ga, nisbiy o‘shish sur‘ati $4,37$ % ga teng bo‘lgan. TGda bu ko‘rsatkichlar $226,7 \pm 8,72$ sm.dan $236,6 \pm 8,11$ sm.gacha o‘sgan ($P < 0,01$) yoki uning absloyut o‘shish darajasi $9,9$ sm.ga, nisbiy o‘shish sur‘ati $4,37$ % ga teng bo‘lgan. Orqaga sakrash oralig‘i keskin tushib ketganligi, lekin TGda tajriba yakuniga kelib yaqqol o‘sganligi ($100,8 \pm 8,92$ sm.dan $112,4 \pm 9,32$ sm.gacha) ma‘lum bo‘ldi ($P < 0,01$). Oldinaga va orqaga sakrash oralig‘i o‘rtasida qayd etilgan asimmetrik farqlar NGda $125,01 - 126,8$ sm.ni, TGda $125,9 - 124,2$ sm.ni tashkil etgan yoki bu farq qisqargan. O‘ng va chap yon tomonlarga sakrash oralig‘i ham bir-biridan real natijalar bo‘yicha ham, uning absolyut va nisbiy o‘shishi, shu jumladan asimmetrik farq bo‘yicha ham sezilarli farq qilgan. Bu borada olingan ko‘rsatkichlar TGda progressiv tomonga o‘zgarganligi kuzatildi.

10 m oraliqda o‘rnatilgan fishkalarini (2 ta) chap tomonidan aylanib 3×10 m.ga makkisimon tartibda yugurish tezligi, ularni o‘ng tomonidan aylanib yugurish tezligidan ancha yuqori bo‘lgan va tajriba yakuniga kelib NGda muvofiq ravishda $7,38 \pm 0,49$ s.dan $7,02 \pm 0,44$ s.gacha ortgan holos ($P > 0,05$) yoki uning absolyut o‘shish sur‘ati $4,88$ s.ni tashkil etgan. Fishkalarini o‘ng tomonidan aylanib yugurish tezligi esa bu guruhda $8,77 \pm 0,66$ s.dan $8,43 \pm 0,58$ s.gacha ortgan ($P > 0,05$) yoki uning nisbiy o‘shishi $3,88$ %ga teng bo‘lgan. Lekin, TGda bu ko‘rsatkichlar muvofiq ravishda $7,35 \pm 0,65$ s.dan $6,67 \pm 0,54$ s.gacha ($P < 0,01$) va $8,63 \pm 0,77$ s.dan $7,86 \pm 0,64$ gacha ($P < 0,01$) o‘sgan yoki ularning nisbiy o‘shish sur‘ati $9,25$ % ham $8,92$ % ni tashkil etgan (3-rasmga qarang).



3- rasm. NG va TG guruhlarida fishkalarini chap va o‘ng tomondan aylanib yugurish tezligi o‘rtasida qayd etilgan asimmetrik farqlarning tajriba yakuniga kelib o‘zgarish dinamikasini ifodalovchi diagrammalar.

Ko‘rinib turibdiki, fishkalarini chap va o‘ng tomonidan aylanib 3×10 m.ga yugurish tezligi o‘rtasida NGda tajribadan avval $1,39$ s, tajriba yakunida $1,41$ s.ga teng asimmetrik farq yuzaga kelgan bo‘lsa, TGda bu ko‘rsatkichlar $1,28$ s.dan $1,19$ s.gacha

qisqargan. Yuqorida qayd etilganidek fishkalarini chap tomonidan ham, o'ng tomonidan ham yugurish tezligi o'rtasida asimmetrik farq kam bo'lsa, belgilangan chegaradan ikki tomonlama burilib yugurish qobiliyati shunchalik "universal"- deb baholanishi mumkin. Biroq amalda bunday tendensiya faqat tajriba davomida biz tomonimizdan tavsiya etilgan eksperimental mashqlar va "DAS" sport o'yini bilan muntazam shug'ullanib kelgan TGda qayd etildi holos.

Turli oraliqlarda (3,5 m, 4,0 m, 4,5 m) sheriklar tomonidan tik qoldirilgan dastalarni yugurib borib 10 imkoniyatdan o'ng qo'lda ham, chap qo'lda ushlab olishini ikki guruhda ham oraliq ortgan sari keskin tushib borgan (7-jadvalga qarang).

7-jadval


Malakali voleybolchi-talabalardan iborat nazorat va tajriba guruhlarida turli oraliqlarda tik qoldirilgan dastalarni yugurib borib o'ng va chap qo'l bilan ushlab olish sonini tajriba davomida o'sish sur'ati (10 imkoniyatdan, marta) (n = 24)

| TK DO (m) | DUQ | Guruh | Tajriba boshida | | Tajriba oxirida | | A | N | t | P |
|-----------|-----------|-------|-----------------|----------|-----------------|----------|------|-------|------|-------|
| | | | \bar{X} | σ | \bar{X} | σ | | | | |
| 3,5 | O'ng qo'l | NG | 4,26 | 0,38 | 4,54 | 0,37 | 0,28 | 6,57 | 2,59 | <0,05 |
| | | TG | 4,19 | 0,43 | 4,72 | 0,46 | 0,53 | 12,65 | 4,12 | <0,01 |
| | Chap qo'l | NG | 3,12 | 0,31 | 3,43 | 0,33 | 0,31 | 9,94 | 3,35 | <0,01 |
| | | TG | 3,03 | 0,54 | 3,73 | 0,59 | 0,7 | 23,1 | 4,42 | <0,01 |
| AF | O'ng | NG | 1,14 | | 1,11 | | 0,03 | 2,63 | | |
| | Chap | TG | 1,16 | | 0,99 | 0,99 | 0,17 | 14,66 | | |
| 4,0 | O'ng qo'l | NG | 2,55 | 0,22 | 2,76 | 0,23 | 0,21 | 8,24 | 3,23 | <0,01 |
| | | TG | 2,61 | 0,31 | 3,03 | 0,35 | 0,42 | 16,09 | 4,42 | <0,01 |
| | Chap qo'l | NG | 2,01 | 0,18 | 2,13 | 0,176 | 0,12 | 5,97 | 2,34 | <0,05 |
| | | TG | 2,09 | 0,42 | 2,75 | 0,53 | 0,61 | 29,19 | 4,42 | <0,01 |
| AF | O'ng | NG | 0,54 | | 0,63 | | 0,09 | 16,67 | | |
| | Chap | TG | 0,52 | | 0,33 | | 0,19 | 36,54 | | |
| 4,5 | O'ng qo'l | NG | 0,85 | 0,08 | 0,93 | 0,08 | 0,08 | 9,41 | 3,46 | <0,01 |
| | | TG | 0,92 | 0,1 | 1,05 | 0,11 | 0,13 | 14,13 | 4,28 | <0,01 |
| | Chap qo'l | NG | 0,53 | 0,06 | 0,57 | 0,062 | 0,04 | 7,55 | 2,27 | <0,05 |
| | | TG | 0,55 | 0,17 | 0,82 | 0,25 | 0,27 | 49,09 | 4,38 | <0,01 |
| AF | O'ng | NG | 0,32 | | 0,36 | | 0,04 | 12,5 | | |
| | Chap | TG | 0,37 | | 0,23 | | 0,14 | 37,84 | | |

Izoh: TKDO - tik qoldirilgan dastalar oralig'i; DUQ - dastani ushlaydigan qo'l; NG-nazorat guruhi; TG - tajriba guruhi; AF-asimmetrik farq; A-absolyut o'sish; N - nisbiy o'sish (foizlarda).

Jumladan, tajribadan avval 3,5 m oraliqdan dastalarni o'ngqo'l bilan ushlab olish soni NGda $4,26 \pm 0,38$ martani, TGda $4,19 \pm 0,43$ martani tashkil etgan. Chap qo'lda-muvofiq ravishda $3,12 \pm 0,31$ va $3,03 \pm 0,5$ martaga teng bo'lgan. 4,0 m oraliqdagi dastlarini o'ng va chap qo'lda ushlab olish soni keskin kamaygan (Ngda - $2,55 \pm 0,22$

va $2,01 \pm 0,18$ marta, TGda- $2,61 \pm 0,31$ va $2,09 \pm 0,42$ marta). 4,5 m oraliqdan dastalarni ushlab olish soni yanada kamaygan (Ngda - $0,85 \pm 0,08$ va $0,53 \pm 0,06$ marta, TGda- $0,92 \pm 0,1$ va $0,55 \pm 0,12$ marta). NGda mazkur ko'rsatkichlar barcha oraliqlar bo'yicha tajriba yakuniga kelib ham yaqqol ortmaganligi kuzatildi ($P < 0,01-0,05$), ularning nisbiy o'sish sur'ati $5,97-9,41$ %ni tashkil etgan. TGda esa mazkur ko'rsatkichlar 4,0 m oraliqdan o'ng qo'lda $2,61 \pm 0,31$ martadan $3,03 \pm 0,35$ martagacha ($P < 0,01$), chap qo'lda $2,09 \pm 0,42$ martadan $2,75 \pm 0,53$ martaga ($P < 0,01$) o'sgan (3-rasmga qarang). Ularning nisbiy o'sish sur'ati muvofiq ravishda $29,19$ % va $36,54$ %ni tashkil etgan. Dastalarni o'ng va chap qo'lda ushlab olish soni o'rtasida kuzatilgan asimmetrik farq TGda tajriba yakuniga kelib sezilarni qisqargan yoki simmetrizatsiyalanish tendensiyasi bilan qayd etilgan (4-rasmga qarang).



Izoh: NG- nazorat guruhi; TG- tajriba guruhi

4-rasm. NG va TG guruhlarida 4 m.da qoldirilgan dastalarni yugurib borib o'ng va chap qo'l bilan ushlab olish sonining tajriba yakuniga kelib absolyut hamda nisbiy o'sishini ifodalovchi diagrammalar.

Fishkalarini chap va o'ng tomonidan aylanib yugurish tezligi, shu jumladan tik qoldirilgan dastalarni o'ng va chap qo'l bilan ushlab olish sonining barqarorlik qiymatini o'rganish maqsadida biz ularni aylanma harakatlar yuklamasi (gavdani 90° egilgan holatda tanani 10 marta aylantirish) ta'sirida saqlanish imkoniyatini o'rgandik. Bu borada o'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, tinch holatda (aylanma harakat yuklamasiz) fishkalarini chap tomonidan aylanib yugurish tezligi tajribadan avval ikki guruhda ham deyarli bir hil darajada qayd etildi ($7,83 \pm 0,59$ va $7,79 \pm 0,77$ s). Ularni chap tomonidan aylanib yugurish tezligi esa muvofiq ravishda $8,97 \pm 0,42$ va $8,85 \pm 0,79$ s.ni tashkil etdi. Biroq ushbu ko'rsatkichlar aylanma harakat yuklamasi ta'sirida tushib ketganligi aniqlandi va va ular muvofiq ravishda: $9,53 \pm 0,51 - 9,61 \pm 1,05$; $10,68 \pm 0,5 - 10,77 \pm 1,32$ s.ga teng bo'lgan. Tajriba yakuniga kelib TGda tinch holatda fishkalarini chap tomonidan aylanib yugurish tezligi $7,79 \pm 0,77$ s.dan $6,89 \pm 0,63$ s.gacha ortgan ($P < 0,01$) yoki uning nisbiy o'sish sur'ati $11,55$ %ni, fishkalarini o'ng tomonidan aylanib yugurish tezligi $8,85 \pm 0,79$ s.dan $7,91 \pm 0,68$ s.gacha ortgan ($P < 0,01$) yoki uning o'sish farqi $10,62$ %ni tashkil etgan. Mazkur guruhda

o'rganilayotgan ko'rsatkichlar aylanma harakat yuklamasi ta'sirida ham ijobiy o'zgarish dinamikasi bilan qayd etildi. Biroq, an'anaviy mashg'ulotlarda shug'ullangan NGda bunday progressiv ko'rsatkichlar kuzatilmadi (8-jadvalga qarang).

8-jadval

Malakali voleybolchi-talabalardan iborat nazorat va tajriba guruhlarida aylanma harakat yuklamasi ta'sirida 10 m. oraliqda o'rnatilgan 2 ta fishkani chap-o'ng tomondan aylanib 3x10 m. masofaga yugurish tezligini tajriba davomida o'sish sur'ati (n = 24)

| Testlar | Guruh | Tajriba boshida | | Tajriba oxirida | | A | N | t | P |
|--|-------|-----------------|----------|-----------------|----------|------|-------|------|-------|
| | | \bar{X} | σ | \bar{X} | σ | | | | |
| Tinch holatda | | | | | | | | | |
| 1.Fishkarni chap tomondan aylanib yugurish (s) | NG | 7,83 | 0,59 | 7,55 | 0,51 | 0,28 | 3,58 | 1,76 | >0,05 |
| | TG | 7,79 | 0,772 | 6,89 | 0,63 | 0,9 | 11,55 | 4,42 | <0,01 |
| 2.Fishkarni o'ng tomondan aylanib yugurish (s) | NG | 8,97 | 0,42 | 8,77 | 0,36 | 0,2 | 2,23 | 1,77 | >0,05 |
| | TG | 8,85 | 0,79 | 7,91 | 0,68 | 0,94 | 10,62 | 4,42 | <0,01 |
| AF | NG | 1,14 | | 1,22 | | 0,08 | 7,02 | | |
| | TG | 1,06 | | 1,02 | | 0,04 | 3,77 | | |
| Gavdani 90° egilgan holatida tanani 10 marta aylantirish ta'sirida | | | | | | | | | |
| 1.Fishkarni chap tomondan aylanib yugurish (s) | NG | 9,53 | 0,51 | 9,24 | 0,45 | 0,29 | 3,04 | 2,09 | <0,05 |
| | TG | 9,61 | 1,05 | 8,38 | 0,864 | 1,23 | 12,80 | 4,43 | <0,01 |
| 2.Fishkarni o'ng tomondan aylanib yugurish (s) | NG | 10,68 | 0,5 | 10,47 | 0,44 | 0,21 | 1,97 | 1,54 | >0,05 |
| | TG | 10,77 | 1,32 | 9,49 | 1,11 | 1,28 | 11,88 | 3,64 | <0,01 |
| AF | NG | 1,15 | | 1,23 | | 0,08 | 6,96 | | |
| | TG | 1,16 | | 1,11 | | 0,05 | 4,31 | | |

Izoh: NG-nazorat guruhi; TG - tajriba guruhi; AF-asimmetrik farq; A-absolyut o'sish; N - nisbiy o'sish (foizlarda).

TGda 3,5 m oraliqda tik qoldirilgan dastalarni yugurib borib o'ng va chap qo'lda ushlab olish soni tinch holatda ham, aylanma harakat yuklamasi ta'sirida ham ijobiy natijalar bilan namoyish etilgan. Jumladan, ushbu guruhda dastalarni o'ng qo'lda ushlab olish soni tajriba yakuniga kelib $4,17 \pm 0,42$ martadan $4,73 \pm 0,46$ martagacha ortgan ($P < 0,1$) yoki uning nisbiy o'sish sur'ati 10,18 %ni tashkil etgan. Chap qo'lda $2,92 \pm 0,51$ martadan $3,64 \pm 0,61$ martagacha ortgan ($P < 0,01$) yoki uning nisbiy o'sishi 24,66 % ga teng bo'lgan. Aylanma harakat yuklamasi ta'sirida mazkur ko'rsatkichlar muvofiq ravishda $2,88 \pm 0,26$ martadan $3,11 \pm 0,26$ martagacha ortgan ($P < 0,01$) yoki uning nisbiy o'sishi 7,99 %ni (o'ng qo'lda) va $1,73 \pm 0,43$ martadan $2,38 \pm 0,58$ martagacha ortgan ($P < 0,01$) yoki uning nisbiy o'sishi 37,57 % ni tashkil etgan. Lekin, tajriba davomida faqat an'anaviy mashg'ulotlarda shug'ullangan NGda esa bunday progressiv o'zgarish natijalari qayd etilmadi (9-jadvalga qarang).

Malakali voleybolchi-talabalardan iborat nazorat va tajriba guruhlarida aylanma harakat yuklamasi ta'sirida 3,5 m. oraliqda joylashtirilgan dastalarni yugurib borib o'ng va chap qo'l bilan ushlab sonining tajriba davomida o'sish sur'ati (10 imkoniyatdan marta) (n = 24)

| DUQ | Guruh | Tajriba boshida | | Tajriba oxirida | | A | N | t | P |
|--|-------|-----------------|----------|-----------------|----------|------|-------|------|-------|
| | | \bar{X} | σ | \bar{X} | σ | | | | |
| Tinch holatda | | | | | | | | | |
| O'ng qo'l | NG | 4,03 | 0,36 | 4,29 | 0,35 | 0,26 | 6,45 | 2,54 | <0,05 |
| | TG | 4,17 | 0,42 | 4,73 | 0,46 | 0,56 | 13,43 | 4,41 | <0,01 |
| Chap qo'l | NG | 2,85 | 0,32 | 3,14 | 0,34 | 0,29 | 10,18 | 3,04 | <0,01 |
| | TG | 2,92 | 0,51 | 3,64 | 0,61 | 0,72 | 24,66 | 4,42 | <0,01 |
| AF | NG | 1,18 | | 1,15 | | 0,03 | 2,54 | | |
| | TG | 1,25 | | 1,09 | | 0,16 | 12,80 | | |
| Gavdani 90° egilgan holatida tanani 10 marta aylantirish ta'sirida | | | | | | | | | |
| O'ng qo'l | NG | 2,95 | 0,19 | 3,07 | 0,19 | 0,12 | 4,07 | 2,19 | <0,05 |
| | TG | 2,88 | 0,26 | 3,11 | 0,26 | 0,23 | 7,99 | 3,08 | <0,01 |
| Chap qo'l | NG | 1,83 | 0,23 | 2,03 | 0,24 | 0,2 | 10,93 | 2,95 | <0,01 |
| | TG | 1,73 | 0,43 | 2,38 | 0,58 | 0,65 | 37,57 | 4,43 | <0,01 |
| AF | NG | 1,12 | | 1,04 | | 0,08 | 7,14 | | |
| | TG | 1,15 | | 0,73 | | 0,42 | 36,52 | | |

Izoh: NG-nazorat guruhi; TG - tajriba guruhi; AF-asimmetrik farq; A-absolyut o'sish; N - nisbiy o'sish (foizlarda).

Barcha sport turlari kabi "DAS" sport o'yini bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarda ham foydali natijaga erishish sportchilardan har tomonlama yuksak shakllangan jismoniy, psixofunksional va texnik-taktik tayyorgarlikni talab qiladi. "DAS" sport o'yinida bunday tayyorgarlik turlari bilan bir qatorda maksimal tezkorlikka asoslangan vaziyatli koordinatsion qobiliyatlar, shu jumladan turli oraliqlarda (3 m, 3.5 m, 4 m) sheriklar tomonidan tik qoldirilgan dastalarni yugurib borib o'ng va chap qo'l bilan ushlab olish soni, shu harakatlar aniqligi, turli burilmaylanma harakatlar ta'siriga qayd etilgan qobiliyatlarning barqarorligi alohida ahamiyatga egadir.

Nazorat va tajriba guruhlarini jamoalari o'rtasida "DAS" sport o'yini bo'yicha tajriba yakunida o'tkazilgan 3 partiyali musobaqa natijalaridan ma'lum bo'ldiki, tajriba jarayonida an'anaviy mashg'ulotlarda shug'ullanishni davom ettirgan NGda 1-nchi partiyaning 1-nchi imkoniyatida buyurtmaga binoan 3,5 m oraliqda qoldirilgan (2 ball) dastalarni o'ng qo'l bilan yugurib borib ushlab olish (1 ball) o'yinga tushgan 8 nafar o'yinchi ishtirokida shu imkoniyatda belgilangan 16 balldan 8 ball to'plashgan (10-jadvalga qarang).

10- jadval

**“DAS” sport o‘yini bo‘yicha nazorat va tajriba guruhi jamoalari o‘rtasida
o‘tkazilgan musobaqa natijalari**


| Partiyalar | Imkoniyatlar | Buyurtmalar | | “O‘” soni | I/T ball | P/T ball | I/K ball | P/K ball | P/T va P/K farq (%) | M ball | M | M ballga nisbatan farqi (%) | |
|--------------------|--------------|-------------|-------|-----------|----------|----------|----------|----------|---------------------|--------|-----|-----------------------------|------|
| | | DUQ | DO(m) | | | | | | | | | P/T | P/K |
| NG jamoasi | | | | | | | | | | | | | |
| 1 | 1 | O‘/Q | 3,5- | 8 | 8 | 14 | 16 | 30 | 46,6 | 16 | 56 | 25 | 53,5 |
| | 2 | Ch/Q | 3 | 4 | 4 | | 8 | | | 16 | | | |
| | 3 | Ch/Q | 3 | 3 | 2 | | 6 | | | 16 | | | |
| | 4 | - | - | 2 | - | | - | | | 8 | | | |
| 2 | 1 | Ch/Q | 3 | 8 | 16 | 57 | 16 | 75 | 82,6 | 16 | 80 | 75 | 93,7 |
| | 2 | Ch/Q | 3,5 | 8 | 18 | | 24 | | | 24 | | | |
| | 3 | Ch/Q | 3 | 7 | 14 | | 14 | | | 16 | | | |
| | 4 | O‘/Q | 4 | 7 | 9 | | 21 | | | 24 | | | |
| 3 | 1 | Ch/Q | 3 | 8 | 16 | 16 | 16 | 60 | 26,6 | 16 | 80 | 20 | 75 |
| | 2 | Ch/Q | 4 | 8 | 0 | | 32 | | | 32 | | | |
| | 3 | Ch/Q | 3,5 | 4 | 0 | | 12 | | | 24 | | | |
| | 4 | - | - | 2 | - | | - | | | 8 | | | |
| Jami | | | | | | 90 | | 165 | 54,5 | | 216 | 41,6 | 76,3 |
| TG jamoasi | | | | | | | | | | | | | |
| 1 | 1 | Ch/Q | 3 | 8 | 16 | 63 | 16 | 75 | 84 | 16 | 80 | 78,7 | 93 |
| | 2 | Ch/Q | 3,5 | 8 | 18 | | 24 | | | 24 | | | |
| | 3 | Ch/Q | 3,5 | 7 | 21 | | 21 | | | 24 | | | |
| | 4 | O‘/Q | 3,5 | 7 | 8 | | 14 | | | 16 | | | |
| 2 | 1 | Ch/Q | 3 | 8 | 16 | 50 | 16 | 80 | 62,5 | 16 | 96 | 52 | 83,3 |
| | 2 | Ch/Q | 3,5 | 8 | 18 | | 24 | | | 24 | | | |
| | 3 | Ch/Q | 4 | 7 | 4 | | 28 | | | 32 | | | |
| | 4 | J | 3 | 4 | 12 | | 12 | | | 24 | | | |
| 3 | 1 | O‘/Q | 4 | 8 | 18 | 35 | 24 | 69 | 56,5 | 24 | 96 | 40,6 | 71,8 |
| | 2 | Ch/Q | 3,5 | 6 | 12 | | 24 | | | 24 | | | |
| | 3 | J | 3 | 4 | 6 | | 12 | | | 24 | | | |
| | 4 | Ch/Q | 3,5 | 3 | 3 | | 9 | | | 24 | | | |
| Jami | | | | | | 148 | | 224 | 67,8 | | 272 | 55,8 | 82,3 |
| Jamoalardagi farqi | | | | | | 58 | | 59 | 13,3 | | 56 | 14,2 | 6 |

Izoh: DUQ-dastani ushlar qo‘li; Ch/Q- chap qo‘li; O‘/Q-o‘ng qo‘l
O‘/soni- o‘yinchilar soni; DO-dastalar oraliq‘i; M- maksimal ball
I/T- iimkoniyatda to‘plagan ball; P/T- partiyadagi to‘plagan ball
I/K- imkoniyatda kutilgan ball; P/K-partiyada kutilgan ball.

Qolgan 2 partiyaning har bir imkoniyatida tik qoldirilgan dastalar oraliq‘i 3 m.ni


tashkil etgan va jamoa muvofiq ravishda 4:3:2 nafar, qolganlarida 7-8 nafar o'yinchi bilan ishtirok etib, 1-nchi partiyada belgilangan 30 balldan 14 ball, 2-nchi partiyada 75 balldan 57 ball, 3 partiyada 60 balldan 16 ball to'plagan va jami belgilangan 165 balldan 90 ball to'plashga muvassar bo'lgan.

Tajriba davomida biz tomonimizdan tavsiya etilgan eksperimental mazmunli mashg'ulotlarda muntazam shug'ullanib borgan TGda esa shu guruh jamoasi o'z buyurtmasiga muvofiq asosan 3,5- 4,0 m.da tik qoldirilgan dastalarni chap qo'l bilan ushlab olish natijasida 1-nchi partiyada belgilangan 75 balldan 63 ball, 2-nchi partiyada 80 balldan 50 ball, 3-nchi partiyada 69 balldan 35 ball va jami uch partiya davomida belgilangan 224 balldan 148 ball to'plab, o'z raqibi ustidan g'alaba qozonishga erishgan (5- va 6-rasmlarga qarang).



5-rasm. "DAS" sport o'yini bo'yicha o'tkazilgan musobaqa davomida NG jamoasi tomonidan partiyalarda to'plangan va to'planishi zarur bo'lgan ballarni ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Izoh: 1,2,3-pariyalar; TB- to'plagan ballar; KB- kutilgan ballar. PTB- partiyalarda to'plagan ballar; PKB- partiyalarda kutilgan ballar.



6-rasm. "DAS" sport o'yini bo'yicha o'tkazilgan musobaqa davomida TG jamoasi tomonidan partiyalarda to'plangan va to'planishi zarur bo'lgan ballarni ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Izoh: 1,2,3- pariyalar; TB- to'plagan ballar; KB- kutilgan ballar. PTB- partiyalarda to'plagan ballar; PKB- partiyalarda kutilgan ballar.

Ushbu rasmda aks ettirilgan ko'rsatkichlardan ham ko'rinib turibdiki, "DAS" sport o'yini bo'yicha o'tkazilgan musobaqa davomida TG jamoasi o'yinchilari nisbatan kamroq texnik-taktik xatoga yo'l qo'yishgan va o'z buyurtmalariga asoslangan taktik rejaga muvofiq 148 ball to'plashga muvassar bo'lishgan. Bunday

natija NG jamoasida qayd etilgan (90 ball) ballar yig'indisidan 58 ballga ortiqdir.

TG jamoasi har bir partiyada, har bir imkoniyatda va o'yin davomida to'plangan bunday ballar yig'indisi shu guruhda qo'llanilgan eksperimental mashqlar, turdosh harakatli o'yinlar va "DAS" sport o'yinining tezkorlikka asoslangan vaziyatli koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishda yuksak samaradorligiga ega ekanligidan dalolat beradi.

XULOSALAR

Dissertatsion ish mavzusi doirasida to'plangan adabiyotlar, mutaxassis-olimlarning fikr-mulohazalari, o'tkazilgan pedagogik kuzatuv ixtiro qilingan "DAS" sport o'yinining funksional ahamiyati va samaradorligini aniqlash bo'yicha tashkil etilgan joriy tadqiqotlar hamda pedagogik tajriba natijalarining qiyosiy tahliliga asosan quyidagi xulosalarni e'tirof etish mumkin:

1. Dissertatsiya ishi bo'yicha tanlangan mavzu g'oyasiga mos ravishda ko'tarilgan muammo-tezkorlikka asoslangan vaziyatli koordinatsion qobiliyalarni bir vaqtni o'zida ham shakllantirish, ham baholash imkoniyatini yaratovchi, 3 partiya davom etadigan "DAS" sport o'yini ixtiro qilingan va patentlangan (17.05.2023, Ixtironing xalqaro patent tasnifi indeksi № A63B 67/00 (UZ IAP 07407), № A63B 71/02 (UZ IAP 07407)). Mazkur "Sport o'yini" va uning tarkibida ijro etiladigan tezkorlikka asoslangan vaziyatli koordinatsion qobiliyatlarni (oldinga, orqaga, chap va o'ng tomonga sakrash, 10 m oraliqda o'rnatilgan 2 ta fishkani chap va o'ng tomonidan aylanib 3x10 m.ga yugurish, turli oraliqlarda tik qoldirilgan dastalarni yugurib o'ng va chap qo'lda ushlab olish) bir vaqtni o'zida ham shakllantirish ham baholash samaradorligi III va IV boblarda keltirilgan tadqiqotlar natijalari bilan asoslab berilgan.

2. "DAS" sport o'yinini sinovdan o'tkazish va uning amaliy ahamiyatini ilmiy asoslash maqsadida o'tkazilgan joriy tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, tezkorlikka asoslangan vaziyatli koordinatsion qobiliyatlarni ifodalovchi joydan oldinga-orqaga o'ng va chap tomonlarga sakrash natijalari tadqiqotga jalb qilingan 11-15 yoshli maktab o'quvchilarida nihoyatda katta asimmetrik farq bilan namoyish etilgan. Jumladan, shu yoshli o'g'il va qiz bolalarda harakat faoliyatida tabiiy bo'lgan oldinga sakrash oralig'i nisbatan me'yoriy talablar doirasida amalga oshirilgan bo'lib, o'g'il bolalarda 163,9±9,8- 190,1±9,1 sm bilan ifodalangan bo'lsa, qiz bolalarda 147,7±8,4- 173,1±9,1 sm.ga teng bo'lgan. Lekin inson uchun noodatiy hisoblanadigan orqa va yon tomonlarga sakrash qobiliyatlari o'ta sust darajada shakllangan ekan.

3. 10 m. oraliqda o'rnatilgan 2 ta fishkani chap va o'ng tomonidan aylanib 3x10 m.ga makkisimon tartibda yugurish tezligini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarida ham sezilarli asimmetrik farqlar mavjud ekanligi ma'lum bo'ldi. Chunonchi, 11-15 yoshli o'g'il bolalarda fishkalarini chap tomonidan aylanib yugurish tezligi 9,1±0,2 - 8,2±0,2 s.ni, asimmetrik farqlar esa 1,2- 1,3 s.ni tashkil etgan. Shu yoshli qiz bolalarda 9,3±0,1 - 8,9±0,9 s.ga, asimmetrik farqlar 1,3 - 1,4 s.ga teng bo'lgan. Ma'lumki, bolalar ham, hatto malakali sportchilar ham muayyan oraliqda joylashtirilgan belgilararo (fishkalar, t/to'plar va h.k.) yugurishda o'naqaylar shu belgilarni chap tomonidan burilib yoki aylanib qaytishi tabiiy bo'lib qolgan,

chapaqaylar esa aksincha. Vaholanki, sport o'yinlarida, ayniqsa voleybol amaliyotida, shu jumladan "DAS" sport o'yinida ham o'naqay va chapaqay harakatlar qanchalik simmetrik nisbatda shakllangan bo'lsa, harakat taktikasining diapazoni shunchalik kengayadi, harakat natijadorligi esa ortadi.

4. "DAS" sport o'yinining komponentlaridan biri bo'lgan sheriklar tomonidan turli oraliqlarda tik qoldirilgan dastalarni yugurib borib o'ng va chap qo'l bilan ushlab olish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, 11-13 yoshli o'quvchilarda (tadqiqotga faqat o'g'il bolalar jalb qilingan) 2 m oraliqda tik qoldirilgan dastalarni 10 imkoniyatda o'ng qo'l bilan qilish soni muvofiq ravishda: $4,3 \pm 1,6$; $5,2 \pm 1,05$; $6,3 \pm 1,01$ martani, chap qo'lda- $2,75 \pm 0,9$; $3,15 \pm 1,5$; $3,90 \pm 1,3$ martani tashkil etgan. 2,5 m oraliqda qoldirilgan dastalarni o'ng qo'lda ushlab soni: $1,8 \pm 0,1$; $2,9 \pm 1,9$; $3,45 \pm 1,2$ martaga, chap qo'lda: $0,3 \pm 0,01$; $2,05 \pm 1,01$; $3,0 \pm 1,3$ martaga teng bo'lgan. 3 m oraliqda qoldirilgan dastalarni ushlab o'yinida ushbu yoshlarga mansub bolalar natija ko'rsata olishmadi. Qayd etilgan ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlilidan ko'rinib turibdiki, dastalarni o'ng va chap qo'l bilan ushlab soni o'rtasida katta asimmetrik farq mavjud ekan.

5. Malakali voleybolchi va basketbolchi-talabalarda oldinga va orqaga, o'ng va chap yon tomonga sakrash oraliq'i o'rtasida asimmetrik farq kuzatilgan. Voleybolchilar va basketbolchilarda qayd etilgan real ko'rsatkichlarda deyarli farq bo'lmagan. Masalan, voleybolchilarda oldinga sakrash $225,9 \pm 6,1$ sm.ni, basketbolchilarda- $226,2 \pm 5,6$ sm.ni, orqaga sakrash muvofiq ravishda- $99,8 \pm 5,8$; $98,7 \pm 9,84$ sm.ni, o'ng tomonga sakrash- $172,2 \pm 5,1$; $173,4 \pm 6,02$ sm.ni, chap tomonga sakrash- $160,9 \pm 4,5$; $161,8 \pm 7,3$ sm.ni tashkil etgan. Fishkalarini o'ng va chap tomonidan aylanib 3×10 m.ga yugurish tezligida ham bunday asimmetrik farqlar yuzaga kelgan. Turli oraliqlarda tik qoldirilgan dastalarni yugurib borib o'ng va chap qo'lda ushlab olish sonini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda (2 m, 2,5 m, 3 m) asimmetrik farqlar aniqlangan.

6. Gavdani 90° oldinga egilgan holatida tanani 10 marta aylantirish yuklamasi ta'sirida chap va o'ng tomonidan aylanib yugurish tezligi keskin tushib ketganligi aniqlandi. Masalan, 11 va 15 yoshli bolalarda fishkalarini chap tomonidan aylanib yugurish tezligi: $11,2 \pm 1,03$ va $9,7 \pm 0,8$ s, voleybolchilarda- $8,39 \pm 0,17$ s, basketbolchilarda- $8,87 \pm 0,22$ s.ni tashkil etdi. Fishkalarini o'ng tomonidan aylanib yugurish tezligi muvofiq ravishda: $12,9 \pm 1,17$; $11,3 \pm 1,02$; $9,96 \pm 0,91$; $10,67 \pm 1,12$ s.ga teng bo'lganligi aniqlandi.

7. Eksperimental mashg'ulotlarda muntazam shug'ullanib borgan TGda oldinga sakrash- ($P < 0,01$), nisbiy o'sish $4,37\%$; orqaga sakrash - ($P < 0,01$), nisbiy o'sish $11,51\%$. O'ng tomonga sakrash oraliq'i ikki guruhda ham chap tomonga sakrash oraliq'idan ustunroq bo'lgan. Lekin, tajriba yakuniga kelib ushbu ko'rsatkichlar TGda nisbatan jadal o'sganligi kuzatildi ($P < 0,01$). 10 m.da o'rnatilgan 2 ta fishkani chap va o'ng tomonidan aylanib yugurish tezligi TGda tajriba yakuniga kelib jadal o'sganligi aniqlandi ($P < 0,01$).

8. Turli oraliqlarda (3,5 m, 4,0 m, 4,5 m) tik qoldirilgan dastalarni o'ng va chap qo'lda ushlab soni o'rtasida tajribadan avval ikki guruhda ham yaqqol ko'zga tashlanuvchi asimmetrik farqlar yuzaga kelgan. TG guruhda 3,5 m oraliqda qoldirilgan dastalarni o'ng qo'l bilan ushlab soni tajriba yakuniga kelib o'sgan ($P < 0,01$), chap qo'lda ushlab soni ($P < 0,01$), nisbiy o'sish $23,10\%$ ga teng bo'lgan. Tik qoldirilgan

dastalar oralig‘i ortgan sari ularni ushlar soni tajriba boshida ikki guruhda ham keskin kamayib borgan. Biroq tajriba yakuniga kelib TGda dastalarni o‘ng qo‘lda ham, chap qo‘lda ham ushlar soni sezilarli sur‘atlar bilan o‘shib borgan ($P<0,01$).

9. 3,5 m oraliqda tik qoldirilgan dastalarni tinch holatda (aylanma harakat yuklamasiz) o‘ng qo‘lda ushlar soni NGda tajriba yakuniga kelib ($P<0,05$) nisbiy o‘shish 6,45 % ni, chap qo‘lda ushlar soni ($P<0,01$), nisbiy o‘shish 10,18 % ga teng bo‘lgan. TGda esa mazkur ko‘rsatkichlar- o‘ng qo‘lda- $4,17\pm 0,42$ martadan $4,73\pm 0,46$ martagacha o‘sgan ($P<0,01$), nisbiy o‘shish 13,43 % ni, chap qo‘lda- $2,92\pm 0,51$ martadan $3,64\pm 0,61$ martagacha o‘sgan ($P<0,01$), nisbiy o‘shish 24,66 % ni tashkil etgan. Qayd etilgan ko‘rsatkichlar gavgani 90° oldinga egilgan holatida tanani 10 marta aylantirish yuklamasi ta‘sirida dastalarni 10 o‘ng qo‘lda ushlar soni, tajriba yakuniga kelib o‘ng qo‘lda TGda $3,11\pm 0,26$ martagacha o‘sgan ($P<0,01$), nisbiy o‘shish 7,99 % ga, chap qo‘lda- $2,38\pm 0,58$ martagacha o‘sgan ($P<0,01$), nisbiy o‘shish 37,6 % ga teng bo‘lgan. NGda bunday progressiv natijalar kuzatilmadi.

10. Tajriba davomida tezkorlikka asoslangan vaziyatli koordinatsion qobiliyatlarni maxsus ishlab chiqilgan mashqlar va ixtiro qilingan “DAS” sport o‘yini yordamida rivojlantirish samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba yakunida o‘tkazilgan musobaqa natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur uch partiyali “o‘yin”ning barcha partiyalari va imkoniyatlarida (har partiya to‘rt imkoniyatdan iborat) TG o‘yinchilari o‘z buyurtmasiga binoan o‘yinga tushib eng ko‘p ballar yig‘indisi to‘plashga muvassar bo‘lishgan. Tajriba davomida biz tomonimizdan tavsiya etilgan eksperimental mazmunli mashg‘ulotlarda muntazam shug‘ullanib kelgan TG jamoasida qayd etilgan natijalar qo‘llanilgan eksperimental mashg‘ulotlar yuksak samaradorlikka ega ekanligidan darak beradi.

AMALIY TAVSIYALAR

Jismoniy tarbiya darslarida, sport mashg‘ulotlarida, shu jumladan voleybolchilar tayyorlash maskanlarida tezkorlikka asoslangan koordinatsion qobiliyatlarni jadal rivojlantirishga mo‘ljallangan 4 blokdan iborat quyidagi umumiy jismoniy va ixtiro qilingan “DAS” sport o‘yiniga xos mashqlar, harakatli o‘yinlar va o‘yin mashg‘ulotlarini amaliyotga tadbiiq qilinishi tavsiya etiladi:

Tezkorlikka asoslangan vaziyatli koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantiruvchi umumiy jismoniy mashqlar:

1. 10 m.da joylashtirilgan fishkalar bo‘ylab 3×10 m.ga va 4×10 m.ga aylanib yugurish -3 martadan 2 seriya;

2. Voleybol maydoni yarmida yon chiziqlar bo‘ylab har 3 m.da joylashtirilgan fishkalar bo‘ylab “Archasimon” yugurish- 92 m- 2 martadan 2 seriya;

3. Basketbol maydoni yarmida har 3 m.da joylashtirilgan fishkalararo 2×14 m.ga yugurish- 2 martadan 3 seriya;

4. Basketbol maydoni yarmida 10.m. oraliqda “8” shaklida chizilgan chiziqlar bo‘ylab yugurish- 4 martadan 2 seriya;

5. Voleybol maydonida 9-3-6-3-9 m.da joylashtirilgan fishkalar bo‘ylab (30 m) yugurish- 3 martadan 2 seriya;

6. 1-4 mashqlar gavgani 90° oldinga egilgan holatida tanani 15 marta aylantirish

yuklamasi ta'sirida bajariladi- bir martadan 2 seriya;

Tezkorlikka asoslangan vaziyatli koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantiruvchi maxsus ishlab chiqilgan jismoniy mashqlar:

1. 12 nafar o'yinchi o'ng va chap qo'li bilan dastani yerga vertikal tiragan holatda bir-biridan 3 m oraliqda "kolonna" safida turib; signal berilgan zahoti dastalar qo'yib yuboriladi va orqadagi o'yinchilar yugurib o'ng qo'li bilan ushlab- 4 martadan 2 seriya;

2. 1- mashq, "shirenga" safida bajariladi- 5 martadan 2 seriya;

3. 1- mashqdagidek faqat juftlikda. 12 nafar o'yinchilar 2 guruhga bo'linib, bir-biridan 3 m yonlama oraliqda "shirenga" safida joylashib o'ng va chap qo'li bilan dastani vertikal yerga tirab turadi; keyingi 6 nafar o'yinchi 3 m yonlama va 3 m qarama-qarshi oraliqda "shirenga" safida dasta bilan joylashadi; signal berilishi bilan juftliklar o'zlarining qarama-qarshi turgan jufti qo'yib yuborilgan dastalarni qulamasdan ushlab olishga intiladi va joy almashishadi- 5 martadan 2 seriya;

4. Har biri 6 nafardan iborat ikki guruh o'yinchilari diametri 3 m bo'lgan 2 ta alohida chizilgan aylana bo'ylab dastani o'ng va chap qo'li bilan vertikal ushlab joylashadi; signal berilishi bilan ularni qo'yib yuborib, oldinda turgan o'yinchi dastasini qulamasdan ushlab olishi talab qilinadi- 6 martadan 2 seriya;

5. 1-3 mashqlar gavdani 90°oldinga egilgan holatida tanani 15 marta aylantirish yuklamasi ta'sirida ijro etiladi- 1 martadan 1 seriya.

Tezkorlikka asoslangan vaziyatli koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantiruvchi maxsus ishlab chiqilgan harakatli o'yinlar:

1. "Dasta markazda!"

2. "Dastani kim qoldiradi?"

3. "Markazda sheriklar"

4. "Juft yoki toq"

5. "Belbog'li dasta"

6. "Dastaning tomonlari".

Izohlar: Barcha o'yinlar ikki jamoa o'rtasida o'tkazilgan va o'yin turli oraliqlarda tik qoldirilgan dastalarni yugurib borib ushlab asosida kechadi.

"DAS" sport o'yini bo'yicha o'tkazilgan mashg'ulotlar

Mazkur o'yin bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlar musobaqa shaklida kechadi va o'yin jamoalarning buyurtmasiga muvofiq turli oraliqlarda (3-3,5-4-4,5-5 m) tik qoldirilgan dastalarni o'z jamoadoshiga qulay qoldirish va o'zi yugurib borib boshqa jamoadoshidan qolgan dastalarni o'ng yoki chap qo'lda ushlab olish asosida 3 partiya davomida kechadi.

Izoh: amaliyotga tavsiya etilayotgan mashqlar, harakatli o'yinlar va "DAS" sport o'yinining to'liq mazmuni hamda qo'llash tartibi dissertatsiyaning 3-bobida hamda ilovalarida ochib berilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.33/01.02.2022. Ped.146.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ФИЗИЧЕСКОЙ
КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

СОЛИЕВА ДИЛФУЗА АБИДОВНА

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ И ОЦЕНКИ КООРДИНАЦИОННЫХ
СПОСОБНОСТЕЙ С ПОМОЩЬЮ СПОРТИВНОЙ ИГРЫ «DAS »
(на примере школьников и волейболистов)**

**13.00.04 – Теория и методика физического воспитания, спортивной тренировки,
оздоровительной и адаптивной физической культуры**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

Чирчик 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за номером B2022.2.PhD/Ped3735

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете физической культуры и спорта

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте по адресу www.uzdjtsu.uz и информационно-образовательном портале “ZiyoNet” по адресу (www.ziynet.uz).

| | |
|-------------------------------|--|
| Научный руководитель | Ярашев Комилжан Дехканович доктор педагогических наук (DSc), профессор |
| Официальные оппоненты: | Рахимов Владимир Шавкатович доктор педагогических наук (DSc), профессор Болтаев Зайниддин Болтаевич кандидат педагогических наук, профессор |
| Ведущая организация: | Джизакский государственный педагогический университет |

Защита диссертации состоится “_____” _____ 2025 г в _____ часов на заседании Научного совета DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 при Научно-исследовательском институте физической культуры и спорта по адресу: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Металлургов, дом 19. Тел.: (0-370) 717-17-79, 717-27-27; факс.: (0-370) 717-17-76; веб-сайт: www.uzdjtsu.uz, e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz, в Узбекском государственном университете физической культуры и спорта, здание “В” 2-й малый зал.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета физической культуры и спорта (зарегистрирована за номером _____) по адресу: 111709, Ташкентская область, г.Чирчик, ул. Металлургов, дом 19. Тел:(0-370)-717-17-19, 717-27-276 факс: (0-370) 717-17-76,

Автореферат диссертации разослан “_____” _____ 2025 года.

(реестр протокола рассылки №__ от “_____” _____ 2025 года).

Ф.А.Керимов
Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней, д.п.н.,
профессор

Х.Х.Курбонов
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.ф.п.н. (PhD)

О.Ж.Дадабоев
Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых
степеней, д.п.н. (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всем мире с давних времен известно, что качество и эффективность всех движений, выполняемых в командных видах спорта, соревновательная деятельность которых протекает в резко меняющихся направлениях и чрезвычайных ситуациях, зависит от специфических координационных способностей (различение временных интервалов и пределов напряжения, быстрое освоение новых движений, двигательная реакция и точность, сохранение равновесия и т.д.). В специализированных научных источниках отмечается, что целенаправленное развитие координационных способностей наиболее эффективно осуществляется посредством подвижных игр, адаптированных к специфике выбранного вида спорта или смежных с ним дисциплин. Однако возможность одновременного развития данных координационных способностей с использованием подвижных игр и их объективной оценки на основе реальных результатов остается крайне ограниченной. Тем не менее, до настоящего времени в спортивной практике, особенно в видах спорта, где соревновательная деятельность протекает в чрезвычайных условиях, вопросы разработки подвижных игр, обладающих свойством как формирования, так и оценки координационных способностей, имеющих приоритетное значение, не подвергались должному изучению или исследованию, что обуславливает необходимость проведения научных исследований в этом направлении.

В мировой спортивной практике ведущими учёными раскрыты теоретические основы координационных способностей, их психофизиологические механизмы и взаимосвязь характерных для каждого вида спорта. В научно-методических источниках, опубликованных зарубежными и отечественными исследователями (статья, диссертация, монография, учебная литература), разработаны правила, методы, средства и принципы формирования координационных способностей, применяемых в практике физического воспитания и спорта. Акцент делается на преимуществах развития этих навыков с помощью специализированных упражнений и подвижных игр. Наряду с этим установлено, что отсутствуют подвижные игры с инновационным содержанием, предназначенные для одновременного формирования и объективной оценки координационных способностей, характерных для командных и ситуационных видов спорта, в которых результаты измеряются в различных единицах (секунда, метр, количество повторений, баллы и т. д.).

В нашей стране в данном направлении проводятся широкомасштабные и многогранные исследования. Организация на научной основе системы физического воспитания и подготовки спортсменов, включая тренировки и соревнования, проводимые на всех этапах многолетнего цикла подготовки, становится одним из приоритетных направлений государственной политики¹⁵. Известно, что в спортивной деятельности техника, тактика, скорость, точность и эффективность всех движений, основанных на реальных физических и психофункциональных возможностях, в первую очередь определяются уровнем координационных способностей. Именно поэтому в последние годы, наряду со всеми видами

¹⁵Постановление Президента Республики Узбекистан, от 03.11.2022 г. № ПП-414 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы подготовки кадров и научных исследований в сфере физической культуры и спорта»

